

**O‘ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI
BADIY TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA PEDAGOG VA
MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

**“RANGTASVIR (TURLARI BO‘YICHA)”
YO‘NALISHI**

**“CHIZMATASVIR VA RANGTASVIRDA
MASHG‘ULOTLAR O‘TKAZISH METODIKASI”
MODULINING**

**O‘QUV USLUBIY
MAJMUASI**



Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: F.Axmadaliyev - O‘zbekiston Xalq rassomi, professor.

Taqrizchilar: E.Xayitov – dotsent.
R.Xudoyberganov - O‘zbekiston Xalq rassomi, professor.

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA‘LIM METODLARI.....	16
III. NAZARIY MATERIALLAR	30
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	30
V. KEYSLAR BANKI	0
VI. MUSTAQIL TA‘LIM MAVZULARI	1
VII. GLOSSARIY	3
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	7

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi”da milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta‘lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta‘lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o‘qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta‘lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o‘quv rejalarida amaliy ko‘nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tasviriy va amaliy san‘at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil

21-apreldagi PQ-4688-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta‘lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-iyundagi 385-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog va mutaxassis kadrlar salohiyatini oshirish va shu orqali talabalarning badiiy estetik didini yuksaltirish kabi muhim vazifalar qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta‘lim

muassasalarining 85 foizi 2030-yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Bu yaqin yillar davomida mamlakatdagi deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarining kredit-modul tizimida faoliyat yurita boshlashidan darak beradi.

Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining V bob Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan 75-maqсад: Tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining badiiy-estetik didini yuksaltirish yuzasidan belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Respublikada ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta'lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu dasturda xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlari, kredit tizimi asosida ta'lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta'minlashning innovatsion metodlari, kredit-modul tizimida pedagoglar faoliyati, kredit-modul tizimida o'quv jarayonining uslubiy ta'minoti, ta'lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni, ta'lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslari, oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslari bayon etilgan.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda: O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, farmonlar, qarorlar hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari kabi normativ hujjatlar qo'llanilmoqda. Lekin shu kunga qadar ta'lim va tarbiya jarayonlarini subektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo'llanilishining nazariy va amaliy jihatlari deyarli o'rganilmagan. Bu holatlar oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan oliy ta'limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini badiiy ta'limning pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg'or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirish to'g'risida ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Modulning vazifalari:

- Chizmatasvirning didaktik prinsiplari;
- Rangtasvirni o'qitishning asosiy qonun-qoidalarini;
- Chizmatasvirda mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash;
- Rangtasvir mashg'ulotlari ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash;
- ijodiy yondashishni tarbiyalash;
- Yorug'-soyani topish, shtrixlash;
- Tekislikni joylashtirish;

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“chizmatasvir va rangtasvirda mashg'ulotlar o'tkazish metodikasi” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- Chizmatasvirning badiiy vositalarini;
- shakl va hajm tasvirida obrazni his qilishning ruhiyatga ta'sirini;
- rangtasvir asarlaridagi kompozitsion yechimi va qoidalarini;
- tasviriy san'atda nur-soya xususiyatlarini;
- kompozitsiya qurilishlari va badiiy yechimni;
- Rangtasvirda badiiy fikrlash xususiyatlarini;
- Rangtasvirda kolorit yechimi va inson ruxiyatiga ta'sirini;
- Chizmatasvirni ishlashda tassavvur, anglash, ko'rish va his etish qobiliyatlarini;
- chizmatasvirning tasviriy san'atdagi rolini;
- chizmatasvir turlari va vositalarini;

- chizmatasvirda akademik maktab uslublarini;
- chizmatasvirda akademik tasvirlashning ahamiyati va talablarini;
- chizmatasvirning ikki o'lchamlilik ko'rinishlarida ta'sirchanlik va badiiylikni;
- jahon chizmatasvir san'at asarlari bilan tanishishda badiiylikning asosiy qonuniyatlarini;
- rangtasvirning tasviriy san'atdagi o'rnini;
- rangtasvir asoslarining vazifasini;
- rangtasvir turlari va vositalarini;
- akademik rangtasvirda naturadan ishlashning ahamiyati va talablarini **bilishi**;
- kompozitsiyada fazoviy muhitni his qilish;
- tasviriy san'atda ko'nikma, mahorat va kuzatuvchanlik tuyg'ularini rivojlantirish;
- rangtasvir kompozitsiyasida shakl va hajm hosil qilish;
- chizmatasvir mahoratini oshirishda nusxa ko'chirish;
- chizmatasvirning turlarini qo'llash;
- chizmatasvirda jahon an'analari va maktablari usullaridan foydalanish;
- rangtasvirda akademik maktab uslublaridan samarali foydalanish;
- rangtasvir kompozitsiyasi qoida va qonunlarini tahlil qilish **ko'nikmalariga** ega bo'lishi;
- tasviriy san'atda kompozitsiyani AKT orqali baholash;
- rangtasvirning badiiy vositalarini qo'llash;
- rangtasvir asarlaridagi kompozitsion yechimi va qoidalarini taxlil etish;
- chizmatasvir mahoratini oshirishda mustaqil ishlash metodlaridan foydalanish;
- chizmatasvir ishlashda Yevropa maktablari tajribasini amaliyotda qo'llash;
- akademik rangtasvirda mahoratni oshirish metodlarini amaliyotga joriy etish;
- ijodiy ishlarni o'zaro prezentatsiya qilish **malakalariga** ega bo'lishi;

- ilgʻor xorijiy sanʻat taʻlim muassasalarining tajribalarini oʻrganish, tadbiq etish;
- shizmatasvir va kangtasvirda akademik maktab uslublarini tahlil etish;
- tasviriy sanʻatda akademik rangtasvir kompozitsiyasi orqali ijodiy tafakkur yurita olish;
- akademik chizmatasvir va rangtasvir ishlashda ilgʻor, zamonaviy usublaridan foydalana olish;
- rangtasvirda ranglarning inson ruhiyatiga taʻsirini sanʻat asarlari orqali ifodalab berish **kompetensiyalariga** ega boʻlishi lozim.

Modulni tashkil etish va oʻtkazish boʻyicha tavsiyalar

“Chizmatasvir va rangtasvirda mashgʻulotlar oʻtkazish metodikasi” moduli maʼruza va amaliy mashgʻulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni oʻqitish jarayonida taʻlimning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qoʻllanilishi, shuningdek, maʼruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- oʻtkaziladigan amaliy mashgʻulotlarda ustaxonalar, sohaga oid muassasalar va soha mutaxassislarining ijodiy ustaxonalarida tashkil etilishi, badiiy taʻlimning muhim taʻlim metodlarini qoʻllash nazarda tutiladi.

Modulning oʻquv rejadagi boshqa modullar bilan bogʻliqligi va uzviyligi

“Chizmatasvir va rangtasvirda mashgʻulotlar oʻtkazish metodikasi” moduli boʻyicha mashgʻulotlar oʻquv rejasidagi “Raqamli universitet” modeli va oliy taʻlim jarayonini boshqarishning axborot tizimlari”, “Taʻlim menejerining innovatsion kompetentligi” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy taʻlimdagi oʻrni

Modulni oʻzlashtirish orqali tinglovchilar badiiy taʻlimning taʻlim va tarbiya jarayonlarini oʻrganish, ularni tahlil etish, amalda qoʻllash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega boʻladilar.

MODUL BOʻYICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya oʻquv yuklamasi
---	-----------------	----------------------------

		Jami	Nazariy	Amaliy mashg' ulot	Ko' chma mashg' ulot
1.	Chizmatasvirning tasviriy san'atdagi roli hamda chizmatasvir ishlashda badiiylik	4	2	2	
2.	Chizmatasvir rangtasvirning asosi sifatida turlari va vositalari	4		4	
3.	Chizmatasvirda akademik uslubi hamda akademik tasvirlashning ahamiyati va talablari	4		4	
4.	Chizmatasvirda jahon an'analari va maktablari hamda Jahon chizmatasvir san'at asarlari bilan tanishishda badiiylikning asosiy qonuniyatlari	4	2	2	
5.	Rangtasvir asoslarining vazifasi	4	2	2	
6.	Rangtasvir kompozitsiyasida qoida va qonunlarning ahamiyati	4		4	
7.	Akademik rangtasvir va chizmatasvirda tabiat manzaralarini aks ettirish	6			6
	Jami:	30	6	18	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: CHIZMATASVIRNING TASVIRIY SAN'ATDAGI ROLI HAMDA CHIZMATASVIR ISHLASHDA BADIYLIK

(2 soat)

Fanni o'qitishdan maqsad-tinglovchilarga tasviriy san'atga oid akademik bilimlarni egalashning barcha bosqichlari, ijodiy masalalar yechimi, mavjud voqealikni tafakur ila butun ko'llami bilan idrok etish va uni badiiy timsol shaklida gavdalantirib bera olish, jaxon tasviriy san'at ustalarining chizmatasvir asarlarini o'rganish ularning eng yaxshi yutuqlarini ijodiy o'zlashtirish bilim mahorat ko'nikma malakasini shakllantirish.

Fanning vazifasi-tinglovchilarga inson qiyofasini turli ko'rinishini chizish, ushbu dastur doirasida o'rganish mavzu inson bo'lib, insonning tashqi va ichki qiyofasi tuzilishi odam anatomiyasi xarakterli tomonlari o'rganib, xar-xil

ko‘rinish va xolatlarda va sokinlikda tasvir etish, tasvir qonuniyati nazariyasini bilish rioa qilish, tabiiy va sun‘iy yoritish sharoitda tasvirlashni o‘rgatishdan iborat.

Asosiy o‘rganish obyekti odam qomati, yalang‘och jussa, gavda qismlari (qo‘l panjasi va oyoq), odam boshi o‘rganish bo‘yicha takroriy topshiriqlar.

2-MAVZU: CHIZMATASVIRDA JAHON AN‘ANALARI VA MAKTABLARI HAMDA JAHON CHIZMATASVIR SAN‘AT ASARLARI BILAN TANISHISHDA BADIYLIKNING ASOSIY QONUNIYATLARI.

(2 soat)

Chizmatasvirda akademik badiiy ta‘lim tizimidagi ahamiyati beqiyos. Badiiy maktablar yutuqlari chizmatasvirdagi erishilganlar bilan baholanadi. Chizmatasvir realistik tasviriy san‘atning hamma turlari uchun birday ahamiyatli xamda erishiladigan badiiy mahorat garovidir. U rassom uchun tasviriy san‘at g‘oyalarini ifoda etishda keng imkoniyatlar va erkinliklar tug‘diradi. Chizmatasvir taxsili barcha tasviriy san‘at ixtisosliklari uchun zaruriyati bab-baravar bo‘lib, u badiiy tasvirlash madaniyatiga ega bo‘lgan, akademik an‘analariga sodiq, rassom-shaxsni shakllantirish fanning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Chizmatasvirda akademik badiiy ta‘lim barcha tasviriy san‘at mutaxassisliklari uchun zaruriyati bab baravar bo‘lib, u badiiy tasvirlash madaniyatiga ega bo‘lgan, akademik an‘analariga sodiq rassom – shaxsni shakllantirish maqsadlarini ko‘zlaydi. Chizmatasvir fani Chizmatasvir tinglovchilarga badiiy didlarini oshirishda muxim rol o‘ynaydi. Chizmatasvir ustasi birinchi navbatda mutaxassislikdan qat‘iy nazar tabiatidagi shakl shamoilni va undagi takrorlanmas ranglarni kuzatib borishi lozim. Bu ko‘zatuwni rivojlantirish uchun Chizmatasvir fani juda ham muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lajak san‘at ustalarining badiiy qarashlarini va kuzatuvlarni rivojlantirishda oliy kasbiy ta‘limdagi o‘rnini bildiradi.

3-MAVZU: RANGTASVIR ASOSLARINING VAZIFASI

(2 soat)

Rangtasvir – barcha tasviriy san‘at turlarining (dekorativ amaliy san‘at, grafika, haykaltaryoshlik va hokazolar) asosi hisoblanadi.

Rassom tasviriy san'at turlarining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar chizmatasvirga va rangtasvirga asoslanadi. U o'zining kuzatishlari, asar oldida kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda, dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. Yaratilgan va yaratilayotgan badiiy asar ta'sirchanligini anglash, xis yetish va uning badiiy g'oyasini oshirish, rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha nazariy bilimlarini shakllantirish ko'nikmasini xosil qilish.

Fanning vazifasi – fundamental, umumkasbiy va maxsus tayyorgarlikka yega bo'lgan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash ko'nikmalarini xosil qilish.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: CHIZMATASVIR MAHORATINI OSHIRISHDA NUSXA KO'CHIRISHNING AHAMIYATI.

(2 soat)

Chizmatasvirda tus munosabatlarini ko'ra bilish jism va jussalarning hajmli shakli va ashyosi inson nigohi tomonidan eng avvalo buyumning nur-soya hamda rang chegaralari vositasida qabul qilinadi. Shuning uchun xam tekislikda naturaning xaqqoniy tasvirini, makon xajmni hosil qilish uchun buyumning perspektiv yechimlaridan tashqari har bir shaklning nur-soya hamda tus munosabatlarini ham to'g'ri aks ettirish lozim. Xar bir xajmli shakl qiyshiq yoki tekis geometrik yuzalar bilan chegaralanadi, ular esa o'z navbatida yoritilish jarayonida turli yorug'lik sharoitlarga tushib qorladi. Buyumlarning turi yuzalariga tushayotgan nurlar ularni bir maromda yoritmaydi. Yuzaning ba'zi qismlariga ko'proq ba'zilariga esa kamroq nur tushadi. Buyum yuzasining yorug'lik o'zgarishi avvalam bor uning nur tushayotgan manbaa bilan oraliq masofaga bog'liq bo'ladi. Yuzadan yorug'lik manbasi qanchalik uzoq bo'lsa uning yuzachi shunchalik oz yoritiladi. Aksincha yorug'lik manbasi qanchalik yaqin bo'lsa uning yoritilishi shu qadar kuchli bo'ladi. Buyum yuzasidagi yorug'lik darajasini xis qilish jismning tomoshabin bilan oraliq masofasiga xam bog'liq bo'ladi. Tomoshabin ko'rilayotgan buyumning uzoqlashgan sari uning ranglari sekin asta xiralashadi, soya jaylar rangning och-to'qligni va tusi oqarib boradi.

2-MAVZU: CHIZMATASVIR RANGTASVIRNING ASOSI SIFATIDA TURLARI VA VOSITALARI

(4 soat)

Bir necha o'nlab qoramalar ishlanib, tinglovchilar o'zlari tanlagan nuqtadan ish boshlashib, postanovkani chiroyli, qonun – qoidalar asosida joylashtirib, yengil chiziqalar yordamida qomatni qurishga kirishishadi. Qomatni konstruksiyaga asoslani qurishni davom ettirishadi. YA'ni naturaning xarakterli umumiy ko'rinishining konstruksiyasi, komatning ko'zga ko'rinmaydigan orqa tomonlari bilan ko'rsatish vazifasi turadi. Gavda qismlarining sxematik ko'rinishlari bular barchasi qomatni to'g'ri tasvirlash asosini tashkil etadi.

Ishning dastlabki boshlanishi avvalo – model-nusxani tanlashdir. Postonovka ilgariroq raxbar bilan birga o'ylab ko'riladi, undan keyin o'ylab qo'yilgan postanovka rejasiga monand model tanlab olinadi.

Bu vazifaga iloji boricha tanasining plastik holati go'zal, o'lchamlari proporsial inson tanlanadi. O'quv topshirig'ini asosiy talabi pastanovka holati va muhit muvofiqligini to'g'ri topishdan iborat.

Postanovka chuqur, murakkab makon tuzilmasi, guruxli yunaltirilgan yorug'ning model rangini, shakli, fe'l-atvori, ma'nosini to'laqonli ochib berishga xizmat qilishi lozim. Interyerda gavdalarni o'zaro muvofiqlashtirish zarur, negaki postanovka modeldan o'zaro mos birlikdagi harakatlarda portret xususiyatlarini ochib berish vazifasini o'z ichiga oladi. Tinglovchining diqqati insonni chuqur o'rganishga, obrazlarni ifodaliligiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

3-MAVZU: CHIZMATASVIRDA AKADEMIK USLUBI HAMDA AKADEMIK TASVIRLASHNING AHAMIYATI VA TALABLARI.

(4 soat)

Kompozitsion joylashtirish Ishning dastlabki boshlanishi avvalo – model-nusxani tanlashdir. Postonovka ilgarirov raxbar bilan birga o'ylab ko'riladi, undan keyin o'ylab qo'yilgan postanovka rejasiga monand model tanlab olinadi. Modelning yuz va qo'llarining tus va plastik xususiyatlari postanovka xarekterini belgilab beradi. Modelning o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlash uchun postanovkani xamma vositalarini, jumladan, ranglarning o'zaro aloqadorligi, nur soya, oq va qora to'qlik va ochlik kabi qarama-qarshi ranglarni va kontrastlarni jalb qilish taqazo etiladi. Postanovkada rasm oldiruvchining fe'l atvorini ochishga yordam beradigan hamma detallar e'tiborga olinishi lozim. Kiyimi, xarakat xolati, muxitdagi buyumlar (uning

kasbini tavsiflaydigan alomatlar) odam qiyofasini va xarakteriga mosligi talab etiladi.

**4-MAVZU: CHIZMATASVIRDA JAHON AN'ANALARI VA
MAKTABLARI HAMDA JAHON CHIZMATASVIR SAN'AT
ASARLARI BILAN TANISHISHDA BADIYLIKNING ASOSIY
QONUNIYATLARI.**

(2 soat)

Badiiy obraz yaratishda shakl ijodiy jarayoni asar chizmatasvirning nazariy asosi ekani; hajmiy-fazoviy tizim va tektonikaning o'zaro ta'siri; chizmatasvir turlari; chizmatasvirni loyihalashtirishda shakl, plastikani hosil qilish qoidalari; haykaltaryoshlik asarlarda foydalaniladigan chizmatasvirning asosiy turlari (simmetrik, assimmetrik, ko'p figurali, murakkab kompozitsiyalangan, parallel, shakllarning birinchi va ikkinchi planga joylashtirilishi va boshqalar) haqida tasavvurga ega bo'lishi. Chizmatasvir nafaqat tasviriy san'at turlaridan biri. Shu bilan bir qatorda u realistik tasviriy san'atning hamma turlari uchun asos xamda badiiy mahorat garovidir. U rassom uchun tasviriy san'at g'oyalarini ifoda etishda keng imkoniyatlar va erkinliklar tug'diradi. Chizmatasvir taxsili barcha tasviriy san'at mutaxassisleri uchun zaruriyati bab-baravar bo'lib u badiiy tasvirlash madaniyatiga ega bo'lgan, akademik an'alariga sodiq rassom-shaxsni shakllantiradi

5-MAVZU: RANGTASVIR ASOSLARINING VAZIFASI.

(2 soat)

Badiiy rangtasvirdan ijod asoslarini o'rganish-natyurmort, portret, inson qiyofasi – tasvirlanuvchining yarim qomat, yaxlit qiyofa, ikki jussadan iborat guruxli o'quv topshiriklari-tarixiy va zamonaviy libosdagi xamda libossiz jussa o'quv topshiriqlari etyudlarini ishlash jarayonida olib boriladi.

Tasviriy san'atda akademik portret qadimiy an'analarga ega, rangtasvirda xam mustakil janr sifatidagi uning axamyati bekiyos. Portret o'quv topshiriklarini bajarish jarayonida insonning psixologik va emotsional xolatini ranglar va tuslar vositasida shakl va kolorit ifodaliligini yaratish, model plastik yechimi, xarakteristikasi mazmundorligi, hamda hayotiyligiga ham katta e'tibor beriladi.

6-MAVZU: RANGTASVIR KOMPOZITSIYASIDA QOIDA VA QONUNLARNING AHAMIYATI.

(4 soat)

Umumlashtirish va tugatish. Ishning yakuniy qismi – yaxlitlash, ya'ni mayda detallarning bir butunlikka bo'ysundirishdir. Bu ishda asosiy bo'laklarning tus yechimiga e'tibor berish kerak. Agar ola bula chiporlik yaxlitlikka xalaqt bersa ularga ishlov berish kerak. Naturani yaxlik ko'rinishga xalaqt berayotgan xar bir bo'lakni o'z joyiga qo'yish kerak. Agar shunday qilmasak, qo'shimcha detallar asosiy obyektдан chalg'itib, diqqatni tortadi, yaxlitlikni buzadi. Agar rassom yaxlik ko'rishni o'rgangan bo'lsa, tasvirni oqilona bajaradi. Bu bosqichda gavda siluetiga ham e'tiborni kuchaytirish darkor.

Tasvirda juda nozik tus faqini saqlab qolish kerak. Siluetning ba'zi joylarining kuchaytirib (chiziq orqali) ba'zi joylarni fon bilan qo'shib yuborish kerak. Qo'yilmada nimani bo'rttirib (chizib) nimani fonga yaqin tusda birlashtirib yuborilishini xal etish zarur. Buni naturaga yaxlit qaraganda ajratib olish mumkin.

KO'CHMA MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Akademik rangtasvir va chizmatasvirda tabiat manzaralarini aks ettirish

6 soat

Tabiat bag'rida yoki mamlakatimizning diqqatga sazovor nuqtalarida eskizlar ishlash, Rangtasvirning ko'zga ko'ringan vakillari – rassomlar ustaxonalariga tashrif buyurish.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, badiiy estetik didni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- davra suhbatlari (ko'rilayotgan kompozitsiyaning badiiy yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

- bahs va munozaralar (kompozitsiya yechimi bo'yicha dalillar va asosli

argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:


1. Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.
3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo‘yilganda-mavzudan so‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida "Aqliy hujum" metodining tuzilmasi keltirilgan.



"Aqliy hujum" metodining tuzilmasi

"Aqliy hujum" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, g'oya va mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Ta'lim oluvchilar savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta'lim oluvchilarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli

qog'ozlarga yoki doskaga) to'planadi;

4. Fikr-g'oyalar ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi;

5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va to'g'ri javob tanlab olinadi.

"Aqliy hujum" metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;

- ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi; fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;

- ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;

- ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;

- ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.


“Davra suhbatı” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbatı” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-

mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'oz beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan



Baholash va tahlil qilish

"Davra suhbat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.

2. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
3. Har bir ta'lim oluvchiga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta'lim oluvchi bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi.

Ta'lim oluvchi konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.

Ta'lim oluvchi konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va

"Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.

5. Konvertga savol yozgan ta'lim oluvchi konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
6. Konvertni olgan ta'lim oluvchi konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi.
7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan ta'lim oluvchining o'ziga qaytib keladi. Savol yozgan ta'lim oluvchi konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi. Ushbu metod orqali ta'lim oluvchilar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta'lim oluvchilar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar bergan javoblarini baholashlari va ta'lim beruvchi ham ta'lim oluvchilarni obyektiv baholashi mumkin.

"Davra suhbat" metodining afzalliklari:

- o'tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;
- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etadilar;
- har bir ta'lim oluvchi o'zining baholanishi mas'uliyatini his etadi;
- o'z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

"Davra suhbat" metodining kamchiliklari:

- ko'p vaqt talab etiladi;


- ta'lim beruvchining o'zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi;
- ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Rolli o‘yin” metodi - ta'lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko'rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta'lim oluvchilar ta'lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma'lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta'lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilar haqida oldindan ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta'lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta'lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta'lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi

“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi. Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba’zi hollarda ta’lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta’lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba’zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta’lim oluvchilar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o‘yin” metodining afzallik tomonlari:

- o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni o‘rgatadi;
- ta’lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mumkin;
- barcha ta’lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.


“Bahs-munozara” metodi - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishim mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta'lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lini ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- fikr-g'oyalarni tinglash madaniyati;
- bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- bir-birlariga o'zaro hurmat.

Quyida “Bahs-munozara” metodini o'tkazish tuzilmasi berilgan.



“Bahs-munozara” metodining tuzilmasi

“Bahs-munozara” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi munozara mavzusini tanlaydi va shunga doir savollar ishlab chiqadi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammo bo‘yicha savol beradi va ularni munozaraga taklif etadi.
3. Ta’lim beruvchi berilgan savolga bildirilgan javoblarni, ya’ni turli g‘oya va fikrlarni yozib boradi yoki bu vazifani bajarish uchun ta’lim oluvchilardan birini kotib etib tayinlaydi. Bu bosqichda ta’lim beruvchita’lim oluvchilarga o‘z fikrlarini erkin bildirishlariga sharoit yaratib beradi.
4. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar bilan birgalikda bildirilgan fikr va g‘oyalarni guruhlariga ajratadi, umumlashtiradi va tahlil qiladi.
5. Tahlil natijasida qo‘yilgan muammoning eng maqbul yechimi tanlanadi.

“Bahs-munozara” metodining afzalliklari:

- ta’lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi;
- ta’lim oluvchilar o‘z fikrining to‘g‘riligini isbotlashga harakat qilishiga imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilarda tinglash va tahlil qilish qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.


“Bahs-munozara” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchidan yuksak boshqarish mahoratini talab etadi;
- ta’lim oluvchilarning bilim darajasiga mos va qiziqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Muammoli vaziyat” metodi - ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo‘yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta’lim oluvchilarning qiziqishlari so‘nishiga,

o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar. Quyida “Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar,

ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta‘lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta‘lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini

shakllantiradi;

- ta‘lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o‘rganadilar;

- ta‘lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;

- ta‘lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta‘lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;

- qo‘yilgan muammo ta‘lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;

- ko‘p vaqt talab etiladi.

“Loyiha” metodi - bu ta‘lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta‘lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhliy bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining

birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta‘lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta‘lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va

y ta‘lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak. Quyidagi chizmada "Loyiha" metodining bosqichlari keltirilgan.

"Loyiha" metodining bosqichlari

"Loyiha" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi loyiha ishi bo'yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig'adilar.
2. Ta'lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta'lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.
3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta'lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo'yicha qaror qabul qiladilar. Ta'lim oluvchilar o'qituvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo'yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. O'qituvchi ta'lim oluvchilar bilan birgalikda "Baholash varaqasi"ni ishlab chiqadi.
4. Ta'lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.
5. Ta'lim oluvchilar ish natijalarini o'zlarini tekshiradilar.

Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini "Baholash varaqasi"da qayd etiladi. Ta'lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. O'qituvchi va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni meyoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda meyoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

O'qituvchi "Loyiha" metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.

"Loyiha" metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhiy ish;
- jamoa ishi.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. Chizmatasvirning tasviriy san'atdagi roli hamda chizmatasvir ishlashda badiiylik

(2 soat)

Badiiy ta'lim va umuman tasviriy san'at sohasida qalamchizgilarning ahamiyati naqadar katta ekanligini rassomchilikka qiziquvchi har bir inson yaxshi biladi. Bo'lajak o'qituvchi-musavvir nafaqat amaliy ishni, balki nazariy masalalarni ham puxta o'zlashtirishi zarur bo'ladi. U qalamtasvir yaratishning muhim ekanligini o'z o'quvchilariga tushuntira bilishi kerak. Bunda albatta u kitob, qo'llanmalardan foydalanadi. Ularda esa rasm chizishning barcha qonun-qoidalari tushuntirib berilgan.

Ma'lumki, qalamtasvirning muhim chizish qoidalari qadim zamonlardan kashf etilib, takomillashtirilib kelingan. Aytishlaricha, birinchi tashkil etilgan ilk Badiiy akademiyalarda rasmni qalamda chizish etakchi o'ringa qo'yilgan. Uni yaxshilab o'rganib olmagan talaba tasvirga rang berish mashg'ulotiga, ya'ni rangtasvir yaratish ishiga yaqinlashtirilmagan. SHu sababdan akademik rasm chizish mashg'uloti muhim hisoblanib, o'quv-ta'lim jarayonining ko'p qismini egallagan. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi qush va hayvonlarning tasvirini chizishni ham boshqa vazifalar qatorida puxta o'rganishi kerak. CHunki kasb-hunar kollejlari, hamda maxsus maktab amaliyotida, o'qitish, o'rgatish dasturlarining barchasida bu mavzu mavjuddir.

Animalistik (jonli tabiat, hayvon va qushlarni aks ettirish sohasi) rasmlar ishlash tasviriy san'atning juda qiziqarli sohasidir. U ko'pincha turli voqeaband kompozitsiyalar, kitob bezaklari yaratilishida foydalaniladi. Ayniqsa, bolalar uchun chiqariladigan adabiyotlarda ko'l keladi.

Mamlakatimiz va chet el rassomlari ijodida ham animalistik mavzularni ko'plab uchratamiz. Qadimgi usta rassomlardan Dyurerning, Rembrandtning, Delakruaning hayvonlar va qushlarni aks ettirgan qalamchizgilarini misol qilib keltirishimiz mumkin. YAponiyaning qadimiy tasviriy san'atiga oid namunalarda ham qush va turli jonivorlarning ajoyib-ajoyib tasvirlari ko'p uchraydi. Rus animalist rassomlari P.Sokolov, V.Serov, A.Stepanov, I.Efimov, V.Vatagin grafik ishlarida ham jonzotlar tasvirining yaxshi namunalari bor. O'zbekiston rassomlari ijodida ayniqsa grafika va haykaltaroshlik sohasida bu

mavzudagi ijod namunalari uchraydi. Masalan, T.Esonov, P.Ivanov, T.Tojixojaev, A.Boymatov va boshqa haykaltaroshlar, shuningdek X.Rahmatullaev, A.G'ulomov, G.Li, Q.Basharov kabi bir qator grafik rassomlarning asarlarida bu mavzuga oid ijod namunalari mavjud.

Rangtasvirda asar yaratuvchilar orasida animalistik mavzudagi namunalarning mualliflari sifatida M.Toshmurodov va Q.Akbarovni ko'rsatishimiz mumkin.

Qush va hayvonlarning tulumlarini rasmini chizish tirik jonzotlarni tasvirlashdan avvalgi bosqichdir, desak yanglishmaymiz. Chunki harakatdagi jonivorlarni chizish ancha murakkab bo'lib, bu ishni boshlashdan avval puxta tayyorgarlikni o'tash kerak. Shunda tulumlarni batafsil o'rganish ancha qo'l keladi. Ular orqali hayvon va kushlarning, skeleti va tana tuzilishi xususiyatlari taxlil qilinib o'rganiladi. O'ziga xos o'lchamlari, ularning yaxlitligi, mutanosibliklari chizish-tasvirlash jarayonida anikdanadi, ifodalanadi. Agar shunday maqsad qo'yilgan bo'lsa hajmi ham ishlab aks ettiriladi. Yana bir muhim tomoni shundaki, qush yoki hayvonning rasmini chizganda shakldan tashqari uning ichki sinch tuzilishini belgilovchi umurtqa pog'onalari va boshqa suyak bo'g'inlariga ham ahamiyat berilishi kerak.

Tasvirning soya va yorug'ligini ko'rsatish uchun turli tasvirlash vositalaridan unumli foydalanish mumkin. Ular chiziqlarni turli yo'nalishlarda yo'naltirib ishlov berishga imkon beradi.


Shuni ham aytib o'tish kerakki qushlarni va turli jonivorlarni chizishdan avval ularning skeletini qanday tuzilishga ega akanligini bilib olish, mavjud bo'lsa skeletini alohida tasvirlab mashq qilish kerak.

Odam boshini chizishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan narea:uning asosi, ya'ni bosh chanoq suyagidir. Uning gipsdan tayyorlangan namunasini chizib mashq qilish ancha foydali bo'lib, hamma qismlari yaxlit ko'rinib turadi. Bosh suyagini chizishga gips namunali o'rganib olgach kirishish mumkin. Bunda iloji boricha uchta turli tomondan, turli holatlarda ko'ringan vaziyatdagi bosh chanoq'i bitta yaxlit qog'oz sathida tasvirlanishi shart.


Chanoq ikkita asosiy qismdan tarkib topgan bo'lib, ular miya qismi^A va yuz qismlaridir. Miya qismi o'z navbatida chakka, leshona, ensa bo'laklaridan iborat. Ular va boshqa mayda ichki qismlar o'zaro tishsimon bo'rtma ulanmalar bilan birikib turadi. Suyakning peshona qismi bosh shaklini belgilab turuvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari yonoq, burun bo'rtmasi xam inson

yuzining shaklini qanday bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Qisqa qilib aytganda bosh chanoq suyagining barcha mayda bo'laklari uning qanday nomlanishini talaba o'rganib, plastik anatomiyaga oid kitoblarni mutolaa qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.


Bosh suyagini to'g'ridan, yondan va burchak ostida ko'rinishini bitta qog'ozda bir paytda ishlab, navbatma-navbat ishlov berilsa uni o'rganish qulay bo'ladi. Asosiy ko'p davom ettiriladigan qalamsuratni ishlashdan avval albatta kichik musavvadalar chizish shart. SHunda har bir tasvirni o'zaro muvofiqlashtirib kompozitsiyasini topish engil ko'chadi.




Bosh chanog'i: 1. Peshona suyagi. 2. Peshona do'ngliklari. 3. Qosh usti yoylari. 4. CHakka suyagi chuqurligini chegaralovchi chiziqning boshlanishi. 5. YOnoq suyagi. 6. YOnoq yoyi. 7. YUqori jag'. 8. Pastki jag'. 9. Pastki jag'ning chiquvchi tarmog'i. 10. Tapa suyagi. 11. Tapa suyagi do'ngligi. 12. CHakka suyagi. 13. Ponasimon suyak. 14. So'rg'ichsimon o'simta. 15. Ensa suyagi.




Bosh suyagini turli holatlarini tasvirlash mashqlari.




Ekorshe va elka kamari skeletining qisqa muddatli qalamchizmalari. Elka kamarining harakat holatini chizmalavhalarini.



Odam qomatini borliqda aks ettirish



YAlong' och va kiyimdagi qiyofachini parallel aks ettiruvchi qalamtasvirlar.



Turgan odamning qomatini uzoq muddatli qalamtasviri.

2-mavzu. Chizmatasvirda jahon an'analari va maktablari hamda Jahon chizmatasvir san'at asarlari bilan tanishishda badiiylikning asosiy qonuniyatlari

(2 soat)

Tasvirlashning asosiy qonun - qoidalari Tasviriy san'at har bir ijodkor shaxs uchun juda keng faoliyatlar maydonidir. Rasm chizishni puxta egallash barcha san'at turlarida muhim o'rinni egallaydi. SHu sababli akademik surat ishlash bilimi tasviriy faoliyatning barchasida qo'l

keladi, muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Qalamtasvir ishlashga va uni o'z ma'naviy hayotida foydalanishga odamlar qadimgi paytlardan oq intilib kelganlar. SHu sababdan ham rasm chizishning ma'lum qonun-qoidalari ishlab chiqilgan va yillar, asrlar mobaynida takomillashtirilib kelingan. Qalamtasvir barcha tasviriy san'at turlarining asosi, negizi desak xato bo'lmaydi. O'quv-mashq vazifalarni puxta, ifodali qilib tasvirlay olish akademik rasm qonun-qoidalarini atroflicha ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Ular ish faoliyatini sifatli tashkil etilishiga ham ko'p tomondan bog'likdir. Bundan tashqari chizishda ishlatiladigan asbob-anjomlar sifatli, talabga javob beradigan bo'lishi kerak.

Qalamtasvir ishlashning eng asosiy talabi chizish ob'ektini har tomonlama o'xshatib aks ettirishdan iborat faoliyatni ta'minlashdir. Buning uchun tasvirni qog'oz sathida to'g'ri joylashtirish, nisbatlarini to'g'ri aniqlash, buyumlarning o'zaro masofasini va perspektiva holatlarini aniq topish talab etiladi. Ishning maqsadga muvofiq chiqishida albatta bilim, tajriba va mahorat etarli darajada kerak bo'ladi. Bilim o'qish, o'rganish, mutolaa qilish orqali orttirilsa, tajriba va mahorat ko'p ishlash, tinmay mashq qilish, intilish evaziga orttirilishi ma'lum.

Ta'lim olishning yana bir muhim sharti har bir tasvir etiladigan narsa, hodisa, lavhani aslidan, ya'ni naturadan qarab aks ettirilishiga juda bog'lpq ekanligi sir emas. CHunki chizishda hayot haqiqatini ko'rsata olish sifati eng muhimdir desak aslo yanglishmaymiz.

Tasvir chizishni o'rganish oddiy natyurmortlarni, shuningdek alohida-alohida turgan buyumlarni aks ettirish orqali amalga oshiriladi. Ish tasvirni qog'ozga to'g'ri va chiroyli tarzda joylashtirishdan boshlanadi, so'ng har bir narsani o'zaro joylashishi, ular orasidagi masofalar nisbatlar aniqlanadi. Bunda qalam engil, qog'ozga ortiq darajada bosmasdan ishlatilishi kerak. Aks holda noto'g'ri chiqqan joylar va yordamchi chiziqlarni o'chirg'ich bilan ketkazish qiyin bo'ladi. SHuning uchun o'rtacha yumshoqlik darajasidagi «TM», «M», «2M» rusumli qalamlardan foydalanish aicha qulay.

Tasvirlarni ishlashda perspektiva qoidalariga amal qilinishi zarur.

Ma'lumki, har bir narsa boshqa narsadan uzoqroqda turgan bo'lsa, u

ko'zimizga kichrayib ko'rinadi, tarxlari ham hiraroq bo'ladi, unga tushayotgan yorug'lik, soyalar ham birinchi plandagi buyumnikidan farqlanib turadi. Bularning hammasi chiziqli va havo perspektivasi hodisasining tabiatda namoyon bo'lishidir.

Ana shu jihatdan to'g'ri aks ettirilsa tasvir haqqoniy chiqishi ta'minlanadi. Har bir narsa qog'ozda tasvirlanar ekan, albatta uning turishiga nisbatan ufq chizig'i topib olinishi kerak. U chizuvchi kishining ko'zi balandligidan o'tuvchi tasavvur etiladigan gorizantal to'g'ri chiziqni tashkil etadi.

Natyurmortlarda uni to'g'ri aniqlab olib tasvir yaratishda foydalanish zarur shartlardan asosiysi bo'lib, tasvirning haqqoniy chiqishni ta'minlaydi. Narsaning tasvirini gorizantal sathga va vertikal kartina sathiga nisbatan holati ham perspektiva ko'rinishiga muvofiq topiladi. Bunda tomonlarning qisqarib, uzoqlashib borgan sari kichrayib ko'rinishi ufqning tutashish nuqtasiga asosan topib chiziladi.

Tasvir yaratishda fazoviy perspektivaga ham ahamiyat berilishi zarur. CHunki yaqinda joylashib turgan buyum uzoqrokdagisidan tusi, rangi, to'q-ochligi bilan ajralib turadi. Soya-yorug'liklarni tasvir tarxlariga monand o'xshatib aks ettirish ular o'rni to'g'ri mutanosib topishga ham bog'liqligini unutmashimiz kerak.

Natyurmortlarda manzara tasvirlariga nisbatan perspektiva qoidalarini qo'llash murakkabroq, chunki buyumlar, narsalar orasidagi farq, masofalar kamroq bo'lib, ular diqqat bilan kuzatilib aniqlanadi. Manzara, tabiatdagi perspektiva esa yaqqolroq seziladi. Masalan, tekis yo'nalgan temir yo'lni kuzatsak bu hodisa aniq ko'rinadi. Undagi relslar uzoqlashgan sari bir-biriga yaqinlashib, ufqqa borib birlashib, nuqta bo'lib ikki tomondagi sim yog'ochlar tobora kaltalashib borayotgandek tuyulishi fikrimizni tasdiqlaydi. Bu hodisani kuzatib perspektiva qonuniyatlarini anglab olish, tahlil qilish, tegishli bilimlarni olish mumkin.

Rasm chizish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etilishi tasvir yaratishning eng muhim pedagogik shartlardan biridir. Buning uchun rasm chizganda uning hajmiga, ifodasiga ham, har bir narsaning o'zi mavjud bo'lib turgan atrof muhitiga ham ob'ektiv tarzda yondoshilishi haqqoniy tasvirlanishi kerak.

3-mavzu. Rangtasvir asoslarining vazifasi

(2 soat)

Tasviriy san'atda uing rangtasvir va grafika tushunchalari mavjud bo'lib, ular bir-biridan ishlanish yo'llari hamda uslublari, tasviriy vositalari bilan farqlanib turadi. Rang inson hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi hodisadir. U turli vaziyatlarda odamga har-xil ta'sir etadi. SHuning uchun biz ayrim paytlarda ranglarni «quvonchli» va kayfiyatimizni tushkunligini ifoda etish mumkin bo'lgan «xira» deb atashimiz bejiz emas. Inson qadimgi paytlardanoq rangning ana shunday xususiyatlarini hisobga olib, o'z faoliyatnda unumli foydalanib kelganligi

ma'lum. Ayniqsa, shunday vosita sifatida rassomlar undan ustalik bilan foydalanganlar. Asarlariga har xil ranglar bilan jilo berib, odamlar kayfiyatiga turlicha ta'sir etib, fikrlar uyg'otadigan tasvirlar yaratishga erishganlar. SHuning uchun tasviriy san'atning juda ko'p turlari va janrlarida rang, hamda uni ishlata bilish, juda katta ahamiyatta egadir. Ammo u qalamtasvirning muhim ekanligi bilan quvvatli ekanligi ma'lum haqiqatlardan eng asosiysi, desak to'g'ri bo'ladi. SHuning uchun qadimdan qalamtasvir chizishga ranggasvirning asosi sifatida qarash shakllangan. Ammo rang xususiyatlarini yaxshi bilish ham har bir tasvir chizishni o'rganuvchi uchun juda ahamiyatlidir.

Maktab fizika kursidan ma'lumki ranglarning deyarli hammasi spektrning asosiy uch rangini qo'shish orqali olinadi. Ular qizil, sariq, zangori ranglardir. Bular asosiy ranglar deb ataladi. Asosiy ranglarni qo'shish orqali qo'shimcha ranglar olinadi. Masalan, qizil va zangorini qo'shish orqali binafsha, qizil va sariqni qo'shish orqali zarg'aldoq, sariq va zangorini qo'shish orqali esa yashi ranglarni hosil qilib mumkin. Ranglar tabiatan ikki xil xususiyatli: iliq va sovuq bo'ladi. Iliq ranglar qatoriga qizil, sariq, zarg'aldoq va ularga yaqin ranglar, sovuq ranglar qatoriga yashil, zangori, binafsha va ularga yaqin bo'lgan ranglar qiradi. SHuningdek axromatik va xromatik ranglar ham bo'ladi. Oq, kul rang va qora ranglar axromatik ranglardir. Qolgan ranglarning hammasi xromatik ranglardir. Axromatik ranglar bir-biridan faqat och-to'qligi bilan farq qiladi. Masalan, oq, kul rang, kora, qoraroq, juda qora va boshqalar. Xromatik ranglar esa bir-biridan rang tusi ya'ni - qizil, sariq, ko'k, yashil, jigarrang va hokazo, och-to'qligi ya'ni - och qizil, to'q sariq, to'q qizil, och sariq kabi va to'yinganligi ya'ni yorqin, xiraliligi bilan farq qiladi. Rang doirasida qarama-qarshi joylashgan ranglar «kontrast» ranglar deb ataladi. Kontrast ranglar bir-biridan keskin farq qilib, biri ikkinchisini yanada yorqin qilib ko'rsatadi. Masalan, yashil rang fonida qizil rang juda yorqin bo'lib ko'rinadi va aksincha qizil rang fonida yashil rang ancha yorqinlashadi. Rang bilan ishlashda rang garmoniyasini, ya'ni ranglar uyg'unligini bilish katta ahamiyatga ega.

Narsa va hodisalarni tasvirlashda moybo'yoq, tempera, akvarel, guash kabi bo'yoqlar ishlatiladi. Narsalarni bo'yoq yordamida tasvirlash ancha murakkab jarayon bo'lib, kishidan ranglarning xususiyatlarini va ularni samarali, uquvli tarzda ishlatish usullari (texnikasini) bilishni taqozo etadi. Bo'yoqlar yordamida narsaning hajmi, fakturasi va fazoviy holatini tasvirlash rangtasvirning asosini tashkil etadi. Har bir narsani chizuvchi tarvirlar ekan, u ranglarga jiddiy e'tiborini qaratishi kerak. Ana shunda rangning tabiatdagi ko'rinishi va tasvirdagi ko'rinishi farqli ekanligini bilib olish mumkin. CHunki narsaning rangi bizdan uzoq-yaqinligiga qarab o'zgarib ko'rinadi. Buning sababi esa havo, atrof-muhitning predmet ko'rinishiga ta'siridandir. Qog'oz sathida ranglar munosabatlarini to'g'ri


nisbatlarda torib ishlatish rangtasvirning haqqoniy aks etishida muhim aqamiyat kasb etuvchi omillardan eng muhimi deb hisoblasak o‘rinlidir. Akvarel bo‘yog‘ida ishlash ham o‘z navbatida jiddiy o‘qib o‘rganishni, qattiq mashq qilishni talab etuvchi mashg‘ulotdir. Buning uchun amaliy ishning o‘zi kifoya qilmaydi. Ishning nazariy qismi amaliyot bilan bir paytda puxta o‘rganib borishni taqozo etadi.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Chizmatasvirning tasviriy san’atdagi roli hamda chizmatasvir ishlashda badiiylik.

(2 soat)

Chizmatasvir va rangtasvir tarixi inson hayotining Yerdagi deyarli 30 ming yillik hayotini qamrab oladi va taxminan musiqiy tarixning tengdoshi bo‘ladi. Qadimgi odamlar yashagan g‘orlarning devorlarida ko‘mir bilan chizilgan va oxta bilan bo‘yalgan birinchi suratlarda, asosan, yovvoyi hayvonlarning — buqa va otlamning podalari tasvirlangan. Bundan tashqari, qadimgi kromanon odamlar (bundan 40 ming yil oldin paydo bo‘lgan zamonaviy turdagi odamlar) devorlarda qo‘l izlarini qoldirganlar. Bunday suratlar butun G‘arbiy Yevropa bo‘ylab — Fransiya, Ispaniya va boshqa mamlakatlarda topilgan bo‘lib, ularni qoyaga ishlangan tosh rasmlari deb ataydilar. Keyinchalik, Neolit3 davrining aynan o‘rtalarida, idishlar sirtida bezaklar ko‘rina boshlaydi, bu davrda idishlar naqshlar bilan bezatilgan.



1-rasm. Devoriy tosh-rasm. «Bizon».¹
(Shimoliy Amerika yovvoyi qoramoli)

Aynan ularda tasvirlash usulining asosi hisoblangan grafika tilining paydo bo‘lishi va shakllanishi tasvirlangan. Chizmatasvir insonlar o‘rtasida aloqa vositasi sifatida yozuvdan ancha avval paydo bo‘lgan. Keyinchalik uning asosida rasmiy xat rivojlangan. Qadim zamonlarda ko‘plab xalqlar rasmlar orqali biron bir ma’lumotni qabul qilishgan yoki yuborishgan. Asrlar mobaynida chizmatasvir barcha turdagi tasvirlarning asosi, yagona ishonchli poydevori bo‘lib xizmat qilib

kelmoqda, uningsiz badiiy san'at asarini yaratib bo'lmaydi. Chizm atasvir tasviriy obrazlarning tili bo'lib, odatda u so'zlardan ko'ra ko'proq ishonarli bo'ladi, shuning uchun hatto insoniyat paydo bo'lishining

2-mavzu. Chizmatasvir rangtasvirning asosi sifatida turlari va vositalari

4 soat

Rassom badiiy ijodda o'z mahoratini tinimsiz o'stirishi, tasviriy vositalar bois asar badiiy ifodaliligini yarata bilish imkoniyatlarini kengaytirishi, atorof-muhitni, tabiat hodisalarni faolroq idrok etishi asosiy talablardan xisoblanadi. Badiiy asar yaratishga xos bo'lgan xususiyatlarni ta'lim mobaynida egallashi talab etiladi. Voqelikni oddiy nusxa ko'chirish bilan aks ettirib bo'lmasligini tushunib olish muhimdir. Uni tasvirlash uchun avvalambor, hayotni to'laligicha rang-barangligi va yaxlitligini anglagan xolda uning tarkibini tashkil etuvchi makon, hajmiy shaklli, yorug'ligi, o'ziga xosligi, xususiy tavsifi qismlarini tushunish, taffakur qilish, mazmunini talqin qilish muhimdir. Ma'lumki, mashhur san'at ustalari: Vechellio Titsian, Rembrandt van Reyn, Piter Paul Rubens. O'zbekiston rassomlari – vatandoshlarmiz: Chingiz Axmarov, Raxim Axmedov, Ro'zi Choriev, Nigmat Qo'ziboev, Javlon Umarbekov, Baxodir Jalolov va boshqalar, o'z ijod yo'llarini tabiatni haqqoniy samimiyat bilan tasvirlashdan boshlaganlar.

Badiiy ta'lim tizimida chizmatasvir fanining rassomlik san'atini egallashdagi axamiyati beqiyos. Ushbu o'quv-uslubiy ko'rsatmalar o'rta maxsus ta'limi-rassomlik o'quv yurtlarida natyurmort chizish kursini o'tab, san'at oliygohlarida tahsilni boshlagan talabalarga mo'ljallangandir. Pedagogning ustaxonada talabalar bilan doimiy ish olib borishi natijasida kuzatuv va tajribalar ko'payib boradi. Ularni o'z navbatida muayyan tartibga keltirib, rassomlik fakultetlarining pedagoglari va talabalari tajribasiga aylantirish kerak. Mazkur ko'rsatmalar rassomlik institutining talabalariga natyurmort chizish tamoyillarini (yo'nalishlarini) bayon qiladi. Natyurmort chizish jarayonida konstruktiv tasvir usullarini chuqur o'zlashtirib, kompozitsion vazifalarini hal qiladi. Nazariyani amaliyotda qo'llashni, tus orqali moddiylikni aks ettirishni o'rganadi. Natyurmort chizishda fonni tasvirlash, asosiy xal qiluvchi vazifadir. Bu haqda ulug' Rembrandt van Reyn shunday degan edi: «Agar fon yozilishiga erishilsa, bu asarni muvvofoqiyatining garovidir».

Jan-Batist Sharden, Frans Sneyders va Van Meer Delfskiy kabi mohir tasvir ustalari ham fonga juda katta ahamiyat berganlar, chunki to'g'ri tanlangan fon natyurmortdagi jismlarning yaxlit bir uyg'unligi ifodasini aks ettirishga yordam beradi. Natyurmort chizishda talaba qat'iy ravishda o'quv-uslubiy ko'rsatmalarga va ketma-ketlikka rioya qilishi va xususiylikdan umumiylikka, oddiylikdan murakkablikka asoslangan tamoyillarga e'tibor berishi kerakki, aks holda

naturadan passiv bir nusxa bo‘lib ko‘chirilib qolishi mumkin. Natyurmort atamasi XVIII asrda paydo bo‘lib, tasviriy san‘atning muayyan janrini anglatadi. Portret yoki peyzaj janrlarida inson yoki tabiatni tasvirlansa, natyurmortda insoning shaxsiy yoki uy buyumlari, o‘simlik va hayvonot olamining ba‘zi bir unsurlari, amaliy san‘at asarlari va shunga o‘xshash juda ko‘p narsalarni aks ettirish mumkin. Natyurmort mustaqil janr sifatida XVI-XVIII asrlarda Flandriya va Gollandiyada yuzaga keldi. Badiiy ta‘lim jarayonlarida natyurmort nafaqat rangtasvir balki chizmatasvirning xam axamiyatli o‘quv topshiriqlaridan xisoblanadi. Chizmatasvir asosiy akademik ta‘limotlardan bo‘lib, talabalarni rassom sifatida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Chizmatasvir madaniyatini va uslubiyatini mustahkam egallash, tasviriy san‘atni hamma turlariga suvdek kerak. Ushbu maqsadga uslubiy tamoyillarga jiddiy amal qilish jarayonida yetiladi. Uslubiy jixatdan to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan chizmatasvir darslari talabalarga chizmatasvir madaniyatini o‘zlashtirishga yordam beradi. Chizmatasvir madaniyatini o‘zlashtirish uslubiyati boy tarixga ega. Qadimdan ustoz musavvirlar o‘zlarining bilimlarni qo‘lyozmalarda qoldirishgan. Masalan, Uyg‘onish davrining ulug‘ rassomi Leonardo da Vinchi o‘z qo‘lyozmalarida chizmatasvirga mansub bilimlarini qoldirgan. Bu borada Sankt-Peterburgning I.E. Repin nomidagi R.X.A.sida xam samarali ishlar olib borilyapti. Keyingi yillarda Kamoliddin Behzod institutida ham bu soxada samarali ishlar olib borilmoqda. Shuni aytish lozimki, talabalarda chizmatasvir madaniyatini rivojlantirishga bag‘ishlangan ushbu ko‘rsatmalarda tarixdagi boy meros – klassik uslubiyatlar asosida yondashilgan. Ilmiy texnik taraqqiyot ijodiy – badiiy tarbiyaning samaradorligini oshirishni talab qiladi, insoniyatning ijodiy faolligini oshirish juda muhimdir.

Badiiy ta‘limda yoshlar tarbiyasida uning shakllanishiga asosiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omil chizmatasvir darslaridir, shuning uchun ham tasviriy san‘at maktabida, rasm o‘qituvchilari oldida avvalo, birinchi galda talabalarni estetik dunyoqarashi, ularning badiiy didi, ijodiy imkoniyatlari, fikrlash doirasi va tasvirlash madaniyatini shakllantirishdek muhim vazifa turadi. Faqatgina malakali ustoz-rassom, talabalarni badiiy ijodda to‘g‘ri yo‘naltirishlari mumkin. Shu munosabat bilan P.P. Chistyakov - “Jism shaklini to‘g‘ri tasvirlash hamma narsadan muhimroq va qimmatliroq» ekanligini takidlaydi. Oliy badiiy ta‘limda asosan inson tasviri o‘quv jarayonining asosiy o‘quv topshiriqlaridan xisoblanadi. Ushbu uslubiy qo‘llanma maxsus o‘rta maktabda o‘qigan, bosh shaklini chizishga bir oz bo‘lsada o‘rgangan amaliy san‘at bo‘limi talabalariga mo‘ljallangan. Portret chizishda, boshni tasvirlayotib, talaba shakl yaratish va tasvirlarining rang tuzilish qonuniyatlarini egallaydi, anatomiyadan olgan bilimlarni amalda qo‘llashga o‘rganadi, rang va shakl yordamida borliqni ifodalaydi. Tasviriy san‘at sohasidagi ta‘lim yo‘nalishlardagi yuqori bosqich bakalavrluk va magistratura talabalarida

ijodiy psixologik portret yozishni o'rgatish naqadar muhimligini xayotni o'zi isbotlab turibdi. Rassomlar, xaykaltaroshlar va boshqa tasviriy san'at ustalari xamma vaqtlarda o'z zamondoshlarining qiyofalarini ifodalab, ularning ichki va tashqi qiyofalarini o'z asarlarida muxirlab ketishgan. Bunga son-sanoqsiz misollar keltirish mumkin. Masalan, eramizdan oldin qadimiy Misr shaxarlaridan birida, Aleksandriya yaqinida joylashgan Fayum qishlog'ida topilgan portretlar shularni jumlasidan.

3-mavzu. Chizmatasvirda akademik uslubi hamda akademik tasvirlashning ahamiyati va talablari

4 soat

Psixologig portret bobida, inson portretini ishlash jarayoni yoritilib o'tilgan. Portret yozilishi uchun eng optimal o'lchamdagi rom olamiz. Masalan, 80x100 sm va unga qanor iplaridan bir tekis to'qilgan mato tortamiz. Matoga daraxt yelimi, yoki sintetik yelim asosida tayyorlangan grunt surtiladi. Albatta, bular hammasi texnologik qonun qoidalarga rioya qilinishi asosida bajariladi. Matoni romga to'g'ri tortish va uni gruntlash, portret yaratishda va unga uzoq umr bag'ishlashda muxim rol o'ynaydi. Portretni boqiyliigi ko'p jihatdan to'g'ri tayyorlangan gruntga bog'liq. Mato asar yaratishga tayyor bo'lgandan keyin original qiyofaga ega bo'lgan model taklif qilinadi. Men bu vazifani halqimizning katta rassomlaridan biri bo'lgan Ro'zi Choriev siymosini yaratish misolida ko'rsatishga qaror qildim 16-rasm. Ro'zi Chorievdan 2-3 metr masofada o'z molbertimni o'rnatdim. O'quv ustaxonalarida ham talabalar o'z molbertlarini modeldan 2- 3, uzog'i bilan 4 metr masofada joylashtirishlari kerak bo'ladi. Bu vazifani bajarish uchun talabalardan nafaqat mutaxassislikning boshlang'ich va o'rta maxsus savodini o'zlashtirish talab qilinadi, shu bilan birga ular keng qamrovli fikr yurita olishlari kerak. Shuning uchun bu vazifa yuqori bakalavrluk va magistrlik bosqichida bajariladi. Kichikroq (15x20; 20x25sm) gruntlangan kartonlarda topshiriqning kompozitsion va rang yechimi topiladi. Aniq bir yechimga kelingandan so'ng vazifani asosiy bajarish jarayoni boshlanadi. Romga tortilgan va gruntlangan mato, molbertga joylashtiriladi va talaba ko'mir qalam bilan, eskizga qarab ham modelga qarab, asta-sekin chiza boshlaydi. Ko'mir qalam bilan ishlanayotgan matodagi rasmda modelni to'la o'xshashligi, uning ichki dunyosi (xarakteri bilan) ifodalanishi lozim. Rasm mato sahnida «erkin nafas» olishi kerak, bu degani rasm egallaydigan joy, mato sahni bilan uyg'unlashib ketishi kerak. Talaba, modelni bosh va qo'l qismlariga alohida e'tibor berishi kerak bo'ladi.

Ulug' rus rassomi Valentin Serov (XIX asr oxiri va XX-asr boshlarida ijod qilgan), aytgandi: «qo'l – bu ikkinchi matodagi portret, chunki biz qo'l ifodasi

orqali shaxs to'g'risida ko'p narsa bilib olishimiz mumkin. Bu odam kim? Qaysi ijtimoiy tabaqaga mansub? Nima bilan tirikchilik ko'radi?». Hamma zamonlarda rassomlar odam portretini va uning qo'lini yozishga katta e'tibor berishgan. Ichki kechinmalari ko'pchilik odamlarning yuzida va ko'zida albatta namoyon bo'ladi. Bu ma'noda ulug' rassom Rembrandt van Reyn yaratgan psixologik portretlari, jahon tasviriy san'atini durdonalaridan biri bo'lib xisoblanadi. Ko'mir qalam bilan rasmni chizib bo'lgandan keyin uni fiksajlash (muxrlash) lozim, bu degani ko'mir qalam bilan ishlangan rasm surilib ketmasligi uchun, uning ustidan fiksativ lok sepib chiqiladi. Qurigan rasm ustidan yumshoq mo'y qalam bilan asta-sekin suyultirilgan Umbra bo'yog'i, yoki Mars, yoki Vandik bo'yog'i bilan ishlov bera boshlash kerak. Moy bo'yog'ni suyultirish uchun «troynik» ishlatiladi. Troynik – 50 foiz rangtasvir uchun ishlatiladigan pinen (maxsus qarag'ay yoki archa yelimini toza rastvoritel bilan aralashmasi), 25 foiz pista yog'i, yoki qanor yog'i va 25 foiz lakdan tashkil topgan. Troynik bilan ishlash rassomga ko'p jihatdan qulay, chunki troynik bilan suyultirilgan bo'yog' tez qurimaydi, shu bilan birga keyinchalik asar uzoq saqlanishi uchun zamin yaratiladi. Rasmdagi tuslar eng to'q tusdan eng och tulgacha qiyoslanib bir rangda ishlanadi. Men o'z asarimni, ya'ni Ro'zi Choriev portretini Vandik degan jigarrang bo'yog' bilan yoza boshladim. Chunki bu rang keyinchalik fondagi ingliz qizil rang bilan Ro'zi akani qora sviterlari va yo'l-yo'l chopon ranglari bilan qorishib, uyg'unlashib ketishi kerak edi. Bundan tashqari imprematura (gruntni matodagi oxirigi qatlami) umbra naturalnaya bo'yog'i va beliladan tashkil topgan aralashma. Umbra naturalnaya sekativ bo'yog' bo'lib, tez qurish xususiyatiga ega bo'lgan rang. Bu bo'yog'ni kelib chiqishi, Italiyaning Umbriya viloyatidan bo'lib, u chiroyli zangor-jigarrang tuslarda namoyon bo'ladi. Portretning yuz-qo'llariga och oxra, ingliz qizil rang va belila qorishmasidan pasta tayyorlab «Pastoznaya» - «Quyug'lik» uslubida ishlov beramiz. Ko'zlarga, burunga, jag'dagi va yonog'dagi soyalarga alohida e'tibor beriladi. Nimaga deganda, odam yuzidagi soyalar va yorug'liklar o'yinini moxirona chizilishi, shaxsni ichki dunyosini ko'rsatishda muxim rol o'ynaydi. Talabalar va magistrlar psixologik portretga kirishish oldidan, uni har taraflama puxta o'ylab olishlari lozim

4-mavzu. Chizmatasvirda jahon an'analari va maktablari hamda Jahon chizmatasvir san'at asarlari bilan tanishishda badiiylikning asosiy qonuniyatlari

2 soat

O'rta asrlarni Uyg'onish davrida, Italiyani daxo rassomlari Leonardo da Vinchi ishlagan portreti «Mona Liza Djiakonda» 1-rasm, Rafael Santini «Sikstin

Madonnasi» 2-rasm, Sandro Botichellini «Baxor» ramzidagi ayol portreti 3-rasm. Ispaniyalik rassom El Grekoni «Bibi Mariyam» portreti 4-rasm, Abdulxaq Abdullaev avtoportreti 5- rasm, Raxim Axmedov «Ona portreti» 6-rasm va boshqa rassomlar o‘z asarlarida zamondoshlarining psixologik qiyofalarini yaratib, jahon madaniyatini boyitishgan va keyingi avlodlarga ularni me’ros qilib qoldirishgan. Shu bois «Psixologik portret» vazifasi tasviriy san’at maktabida eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Yosh rassomlar bu vazifani yaxshi o‘zlashtira olsalar, kelajakda tasviriy san’at ustalari sifatida o‘zlarini erkin va mustaqil xis qiladilar. Bunda to‘g‘ri tanlangan fon, rassomga portretning moxiyatini ochib berishga, yuzning xar bir qisimlarini o‘zaro mutanosiblikda gavdalantirishga yordam beradi. Shuning bilan birga tasvirga olinayotgan shaxsning ichki kechinmalarini kaftdek yaqqol ko‘rsatadi. Talaba portret tasvirlayotganda, oddiy nusxa ko‘chiruvchi bo‘lib qolmasligi uchun o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalarga qat’iy amal qilishi, oddiydan murakkablikga, xususiyan umumiylikka kabi tamoyillarga rioya qilishi zarur. Portret chizishda «Bosh» topshirig‘ini bajarish favqulotda xodisa emas. Bu jarayonda Van Deyk, Diego Velaskes, El Greko, Rembrandt van Reyn singari klassik rassomlar portret asarlarini o‘rganish, talabalarda odam boshini tasvirlashni o‘rganishda aloxida axamiyat kasb etadi.

5-mavzu. Rangtasvir asoslarining vazifasi

2 soat

Rangtasvir ishlashda o‘ning qonun-qoidalarini, usul va texnologiyasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega vazifalardandir, desak xato bo‘lmaydi. SHunday zarur shartlar qatorig‘a axromatik va xromatik ranglar haqidagi bilimlar ham kirishi tabiiydir.

Ko‘zimiz ko‘ra oladigan tabiatdagi hamma ranglarni shartli ravishda ikkiga: axromatik va xromatik ranglarga bo‘lish mumkin. Oqdan to‘q qoragacha bo‘lgan ranglar axromatik ranglarga (oq, kul rang, qoramtir, qora, to‘q qora) qolganlari esa xromatik (qizil, sariq, ko‘k va hokazo) ranglarga kiradi.

Xromatik ranglar o‘z navbatida, shartli ravishda yana ikkiga, issiq va sovuq ranglarga bo‘linadi. Issiq ranglarga olov, quyosh, qizigan narsalarning rangini

eslatuvchi qizil, sariq, zarg‘aldoq ranglar kiradi. Muz, havo, suvlarning rangini eslatuvchi ko‘k, moviy, binafsha ranglar sovuq ranglarga kiradi: YAshil va binafsha ranglar goh issiq, goh sovuq ranglarga kirishi mumkin. CHunki yashil rang sariq va ko‘k ranglarning aralashmasidandir. Binafsha rang esa qizil va ko‘k ranglarning aralashmasidan hosil bo‘ladi. Ko‘rinib turibdiki, bu ranglar issiq va sovuq, ranglarning aralashmasidan hosil bo‘lgan. Aralashtirishda issiq rang miqdori sovuq rang miqdoriga nisbatan ko‘proq bo‘lsa, hosil bo‘lgan rang issiq

rang qatoriga, sovuq rang miqdori ko‘proq bo‘lsa, sovuq ranglar qatoriga o‘tishi mumkin. Xuddi shunday binafsha pangida qizil rang ko‘proq bo‘lsa issiq, ko‘k rang ko‘proq bo‘lsa sovuq, ranglar qatoriga kiradi. Demak o‘quv mashg‘ulotida rangtasvirni ishlashda qo‘yilmadagi narsa va buyumlarning yorug‘-soya nisbatlari, shuningdek rang nisbatlarini ham ochib aniq ko‘rsatish muqim ahamiyatga ega.

Ranglarning tabiiyligini tasvirda to‘g‘ri bajarish ancha qiyin ish hisoblanadi. Bunga jiddiy mehnat, nozik did va zo‘r mushohada orqali erishish mumkin. Ayniqsa natyurmortdagi narsalarning och-to‘qlik darajalarini farqlashga, undagi tus birligini tushunishga o‘rganish uchun natyurmortni bitta rangda tasvirlash katta ahamiyatga ega. Bu usulda rasm ishlash keyinchalik qiyin natyurmortlarning rangli tasvirini bajarishga o‘tishni ancha osonlashtiradi. Bir rangda yozish usuli «grizayl» deb ataladi.

Grizayl usulida rasm ishlash turli ranglar vositasida ish usuliga o‘tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda mo‘yqalamni ishlatish yo‘llari va akvarel bo‘yoqlarining xususiyatlarini o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi. Bu texnika bilan bir nechta natyurmortlarni tasvirlab o‘rgangandan so‘ng, barcha rang xillari bilan ham natyurmort ishlash ancha oson bo‘ladi.

Natyurmortlar ko‘pincha xonalarga qo‘yib ishlanadi. Ammo ba‘zan uni tabiat qo‘ynida tashkil qilib, tasvirlashga ham to‘g‘ri keladi. SHunday paytda natyurmortni ishlashdan avval, uning rang xususiyatlarini tahlil qilib, tushunib olish juda muhimdir. CHunki, xona ichiga qo‘yilgan natyurmortga derazadan tushayotgan nur - narsalarning yorug‘ qismida sovuq, ranglarni beradi. Buyumlardan tushayotgan soyalar esa aksincha, iliq, issiq bo‘lib ko‘rinadi. Ochiq havodagi, tashqaridagi chizilayotgan narsalar buning aksidir, ularning soyasi sovuq, yorug‘ qismi esa iliq bo‘lib ko‘rinishi mumkin. Ana shunday holatlarni diqqat bilan kuzatib, so‘ng e‘tibor bilan

tasvirlash ish sifatining yaxshi bo‘lishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Ma‘lumki ranglarni ko‘rish va idrok etish qobiliyati asta-sekin mashqlar orqali shakllanadi. Bunda akvarel bo‘yoqlar nomlarini aniq bilib olish va ularni o‘z o‘rnida jo‘yali qo‘llash muhimdir.

Akvarel bo‘yoqlari 24-16 xil rangli to‘plamlar holida bo‘ladi. Ularni ishga tayyorlash vaqtida har birining ustiga yozib qo‘yilgan yorlig‘ini asta ko‘chirib olib, bo‘yoq solingan plastmassa idishchanning tagiga yopishtirib qo‘yish va nomlarini eslab qolish kerak. Ular quyidagicha tartibda bo‘lishi mumkin. YA‘ni: limon rang kadmiy, sariq kadmiy, och oxra, tabiiy siena, oltinsimon sariq, zarg‘aldoq kadmiy, qizil oxra, kuydirilgan siena, och qizil, guldor, qizil kraplak. karmin (yorqin qizil), binafsha, kraplak, ultramarin, ko‘k kobalt, havo rang, zumrad yashil, yashil permanent, sabza (yashil), tabiiy umbra (to‘q, jigar rang), jigar rang mars (och), kuydirilgan umbra (jigar rang), sepiya (chiroyli to‘q, jigar rang), qora.

Tabiatdagi narsalarning aniq, rangini belgilab ko'rsatadigan tayyor bo'yoqlar mavjud emas. Ammo etuk rassom ranglarning o'zaro ta'siri va ko'rinish holatlarini idrok etib ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda har qanday narsani ham aks ettira oladi. Tasvirda shunday joziba va hayotiy haqiqatga erishish uchun rassomga ranglar nisbatini bilish, ranglar orasida qandaydir bitta rangning turli xil tovlanishini hisobga olib ishlata olishiga yordam bergan. Masalan, olov rang qizilni kuchliroq «yal-yal» yonadigan qilib tasvirlash uchun shu rang atrofidagi narsalarning soyasini ko'kimtir, havo rang, yashil zangori tushlarda beriladi. Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Bunga erishish uchun rangshunoslik fanining asoslarini chuqur o'rganish va amaliy ish jarayonida bu masalalarga qayta-qayta murojaat qilish kerak. Har xil bo'yoqlar bilan (akvarel, guash, moybo'yoq) natyurmortlarni tasvirlash uchun yuqorida qayd etilgan tajribalarni o'tkazib ko'rish, bo'yoqlarning texnologiyasi xususiyatlarini yaxshi bilish, ularni ishlatish usullarini o'zlashtirish uchun ko'plab mashqlar bajarish tavsiya etiladi.

Tasviriy can'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rinni egallaydi. Bunga sabab maktabda rasm ishlashni o'rganishda akvarelning etakchi rol o'ynashidir. SHuning uchun uni o'qitayotgan o'qituvchining o'zi ham shy sohani puxta egallagan bo'lishi zarur.

6-mavzu. Rangtasvir kompozitsiyasida qoida va qonunlarning ahamiyati

4 soat

Talabalar rangshunoslik nazariyasini ayniqsa puxta bilishlari shart. SHuning bilan realistik rangtasvirning nazariy asoslari ilmini o'zlashtirish va ayni paytda amaliy mashq qilish natijasida savodli rasm ishlash yo'llarini o'rganish mumkin. Ranglarning tabiatda qanday hosil bo'lishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar Nyuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asoslarda tekshirganlar. M.V.Lomonosov fanda birinchi bo'lib asosiy ranglarni kashf etgan.

Nyuton qator tajribalar o'tkazib, oq yorug'likni ko'p rang ekanligini isbotlagan. Ektranda spektr ranglarini hosil qilgan. Buning uchun Nyuton quyosh nurini qora pardaning kichik tirqishidan o'gkazib uning yo'liga uch qirrali prizma qo'ygan, natijada ektranda har xil ranglardan iborat keng yorug'lik yig'indisi hosil bo'lgan. Ektranda spektr ranglari paydo bo'lib, ular quyidagicha joylashgan: qizil, sariq, zarg'aldoq, yashil, zangori, havorang va binafsha ranglar.

XIX asrda nemis tabiatshunos olimi G.L.Gelmgols rangshunoslik

nazariyasida muhim yangilik yaratdi. Ko'p yillik tajribalar asosida xromatik ranglarning uchta asosiy alomati - rang tusi, rangning och to'qligi va to'yinganligi asosida turkumlash kerakligini ko'rsatdi.

Biror xromatik rangga ochroq kulrang qo'shsak, uning jozibaliligi pasayib, nursizlanadi. Bu hol rangning kam to'yinganligidan, ya'ni uling tarkibida bo'yoqning kamayganligidan darak beradi. Demak, rangning to'yinganligi yoki to'yinmaganligi deganda uning kul rangga nisbatan rangdorlik darajasi, tozaligini tushinish kerak. Rang doirasi ikki teng bo'lakka bo'linsa, birinchi yarmida qizil, zarg'aldoq, sarg'ish, sariq ranglar, ikkinchi yarmida esa havorang, zangori ko'k, binafsha ranglar joylashadi. Doiraning - birinchi yarmidagilar iliq ranglar, ikkinchi yarmidagilari esa sovuq ranglardir. Bunday nomlanishiga sabab qizil, sariq ranglar olovni, qizigan temirni, cho'g'ni eslatsa, havo rang, zangori, yashillar esa muzni, suvning rangini eslatadi.

Ikkita spektr rangi ustma-ust tushirilsa, ranglar bir-biriga qo'shilib. murakkab rang hosil bo'ladi. Qizil rang, havo rang va binafsha ranglar bilan qo'shilganda chiroyli tusdagi pushti, to'q qizil, safsar ranglarni hosil qiladi. Qo'shilganda oq rang beradigan spektrli ranglar qo'shimcha yoki to'ldiruvchi ranglar deyiladi. Chunki ular oq rang hosil bo'lgunga qadar bir-birini to'ldiradi. Bunday ranglarga sariq, havo rang, qizil, zangori, yashil va binafsha ranglar kiradi. Bo'yoqlarning qo'shilishi bilan spektraviy ranglarning qo'shilishi orasida farq bor. Uchta asosiy spektraviy rang: qizil, yashil va havo rang qo'shilganda oq rang hosil bo'ladi. Asosiy qizil, sariq va havo rang bo'yoqlari qo'shilishidan esa qora rang hosil bo'ladi. Spektrning sariq va havo ranglari qo'shilishi natijasida oq rang hosil bo'ladi. Biroq sariq va havorang bo'yoqlarni aralashtirsak yashil rang hosil bo'ladi.

Demak, ikkita rangni optik aralashtirish natijasida oq yoki unga yaqin nim kul rang hosil qiladigan ranglar o'zaro to'ldiruvchi (qo'shimcha) hisoblanadi. Masalan, to'q qizil va yashil, zangori va zarg'aldoq qizil, sariq, havo rang, sarg'ish yashil va binafsha ranglar o'zaro to'ldiruvchidir.

Tasvir bilan chizilayotgan narsa, holat o'rtasida to'la o'xshashlik bo'lishi uchun ularning rang nisbatlarida ham o'xshashlik bo'lishi shart. Tasviriy san'atda akvarel bo'yoqlar bilan ishlash salmoqli o'rinni egallaydi. Akvarel - rangtasvirning eng nozik turlaridan biri. Qadimdan akvarel o'zining nafisligi va ranglarning yorqinligi bilan ko'pgina rassomlarni qiziqtirib kelgan. Akvarel lotincha so'z bo'lib «suv bilan suyultirib ishlatiladigan bo'yoqlar» ma'nosini anglatadi. Akvarel tarkibiga bo'yoq moddasi (o'simlik yoki ma'danlarning mayin qilib yanchilgan kukuni) va biriktiruvchi modda sifatida olcha elimi, gletsirin va ozroq asal kiradi. Bular hammasi suvda osongina eriydigan bo'lgani uchun bo'yoqqa suv qo'shib suyultirib ishlatiladi.

Akvarelda oq rang ishlatilmaydi. Uning o'rmini oq qog'ozning o'zi o'taydi.

Qog'oz oppoq, etarli darajada qalin va yuzasi g'adir-budir bo'lishi zarur. U agar juda silliq bo'lsa, sathida ranglar etarli darajada yotmaydi. Narsa va buyumlar tasvirlarini bo'yash jarayonida umumiydan xususiyya yoki aksincha xususiyydan umumiyga qarab boriladi, nihoyat ish yaxlitlash bilan yakunlanadi.

Rangtasvirda turli sirtlarni ifodalay bilish

Rangtasvir ishlashning nozik tomonlari ko'p. Ulardan biri turli sirtlarni ifodali tasvirlash masalasidir. Chunki natyurmortda ham, odam tasvirini bajarganda ham chizilayotgan narsalarning moddiy ekanligini ko'rsatish muhim hisoblanadi. Buyumlarning tasvirdagi moddiyligi, qanday ashyodan yasalgani yoki tarkib topgani avvalambor uning soya-yorug'ligini aks etgirish vositasida ko'rsatiladi. Turli materiallardan yasalgan buyumlar sirtining o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-birlaridan farqlanib turadilar. Masalan, silindrik shakldagi buyum o'zining soya-yorug' hamda yarimsoya va aks shu'lalarining bir-biriga silliq ko'rinishda o'tishi sababli ajralib turishi bilan xususiyatlidir. Xuddi shunday shakl-shamoyilga ega bo'lgan shisha idishda esa soya bilan yorug' qismi, yarimsoyalar chegarasi yaxshi sezilmaydi. Uning shaklini faqat yiltirab turgan shula (blik) va aks shu'la (refleks)lar bo'rttirib ko'rsatishi mumkin. Metalldan yasalgan buyumlarda ham shunday holatni ko'rishimiz mumkin. Agar narsalarning xuddi ana shu xususiyatlarini qalamtasvir yoki rangtasvir yordamida o'xshatib tasvirlasak, ularning qanday ashyodan ekanligi (materiali) seziladi. Masalan, metalldan, shishadan, yog'ochdan, gipsdan va hokazo narsalardan tayyorlanganligi tasvirdan bilinib turadi. Narsaning qanday ashyodan ekanligi tasvirning tarxi, rangi, tusining to'q yoki ochligi bilan ham ajralib turadi. Ular naturaga, asliga har tomonlama o'xshatib, mutanosib qilib olingan bo'lsa shunday sifatga ega bo'ladi.

Inson tanasi, boshi, qo'l, oyog'i va boshqa a'zolarini tasvirlash paytida ayniqsa kiyim-kechagi, bosh kiyimi va boshqalarning sirti ko'rinishi aslidagidek o'xshab chiqishi uchun ular - ham rang, tusi xususiyatlari bilan to'liq aks ettirilishi kerak. Inson, tanasi tasvirlash uchun juda murakkab ob'ektdir. SHu sababli u boshqa narsalarga qaraganda alohida mas'uliyat bilan, har hil texnik imkoniyatlarni qo'llab ishlanadi. Masalan, yuzdagi va badanning boshqa joylari sirtida ko'p farqlar bor. YUz dag'alroq bo'lsa, bo'yin va bel qismlari nozik rang tuslarida ko'rinadi, shunga yarasha tasvirlanadi.

V. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Akademik rangtasvir va chizmatasvirda tabiat manzaralarini aks ettirish

6 soat

Guash bo'yog'ida ishlashning yo'llari

Guash bo'yog'i akvarel bo'yog'ining tamoman aksi bo'lib, u kabi tiniq, jarangdor tus bermaydi. Ranglari yorug'likni yuttanligi sababli uning tagidagi qog'oz ko'rinib, sezilib turmaydi. Tarkibi esa akvarelniki singari - bo'yoq kukuni va u ni bog'lovchi moddalardan iborat. Ammo ular maxsus yog'och elimi bilan mo'tadil nisbatlarda aralashtirilgan bo'ladi. Guash bo'yog'ining yana bir muhim jihati uning oq bo'yoq bilan aralashtirib ishlatilishidir. SHuning uchun uning ranglari unchalik jarangdorlik kasb etmaydi. Bo'yoqni ishlatish uchun mo'yqalamlar ham maxsus tanlanib olinadi va ular juda yumshoq bo'lmasligi, bir oz dag'alroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Tasvir ishlanadigan sath, ya'ni qog'oz yoki karton ham silliq bo'lmagani yaxshi. Uning yuzasi iloji boricha elimli qoplama (grunt) bilan ishlov berilgan bo'lishi zarur. SHunda uning sathiga guash bo'yog'ini yaxshi surtish mumkin bo'ladi. Guash ko'pincha grafik ishlarni, bezaklarni, plakatlarni ishlashda va qisman rangtasvirlarni bajarishda foydalaniladigan, suv qo'shib ishlatiladigan, tez quriydigan bo'yoqdir. U bilan tasvirlar bajarishning murakkabligi shundaki, bo'yoq surtilgan paytida to'q, qurigandan keyin esa ochlashib ko'rinishidir. SHu jihatini hisobga olib turilmasa ranglar orasidagi muvofiqlikni ushlab turish ancha qiyin kechadi. Buning uchun odatda har bir surtiladigan asosiy ranglar alohida-alohida maxsus idishchalarda tayyorlanib olinib, so'ng unga bir oz boshqa qo'shimchalar aralashtirib tasvir ishlanadi. Ranglarni ishlatishda, uning to'q-ochligi, rang tuslarining qanday topilganini doimo tekshirib, bilib turish uchun bir bo'lak qog'ozga tayyorlangan aralashmani surtib aniqlab, so'ng qo'llansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Guash bo'yog'ida juda ko'p o'tmish rassomlari ham asarlar yaratganliklari ma'lum. Ularning ajoyib-ajoyib natyurmort, manzara, teatr bezaklari, portret, plakatlari jahon tasviriy san'ati xazinasidan o'rin olgan. Ammo, shunisi borki, bu nozik, saqlanishi ancha qiyin bo'lgan ishlarning ayrimlari, ayniqsa quyuq qilib ishlanganlarining bo'yoqlari o'chib, to'kilib ta'mir talab bo'lib qolganligi sir emas. Guash bo'yog'ida tasvirlarni bajarganda iloji boricha har bir rang tusi uchun alohida-alohida mo'yqalam tutgan ma'qul. SHunda ranglarni tiniq va toza, jozibali chiqishig'a erishiladi. Mo'yqalamlarning turli o'lchamlardagisi, va yumaloq hamda yapaloq ko'rinishdagilaridan foydalaniladi. Ayniqsa, yapaloq mo'yqalam bezak ishlarida hamda tezkor ranglavhalarni ishlashda juda qulaydir. Guash bo'yog'ida ranglavha va ayniqsa portretlar hamda odam tana qismlarini tasvirlash, nozik rang tovlanishlarini berish qiyin ishdir. Buning uchun ancha muncha mahorat, bilim, tajriba kerak bo'ladi. Tasvir ishlashning yo'l-yo'rig'i, usullarini puxta zgallash esa ko'p amaliy mashg'ulotlarni talab etadigan jarayondir.

Katta-katta monumental asarlarning eskizlari hamda kompozitsiya

loyihalarini, bayram munosabati bilan tayyorlanadigan suratlarni ham guashda bajarish qulaydir. U bilan keng qamrovli, mahobatli tasvirlar tez ishlanadi.

Rangtasvir ustalarining asarlarini kuzatar ekanmiz, ularning har biri texnologiyasi hamda uslubi jihatidan naqadar rang-barang ekanligini ko'ramiz va rassomlar mahoratiga tan beramiz. Chunki ijodkorlar bo'yoqning tasvir imkoniyatlarini ustalik bilan qo'llaganlar. Asarlarning biri quyuc bo'yoq qatlamidan foydalanib ishlangan bo'lsa, boshqasi esa juda nozik, yupqa qatlamda bajarilgan. Shunday asarlar xam borki, ular murakkab aralash texnikada bajarilgan. YA'ni ham akvarel, ham guash texnologiyasi ustalik bilan qo'llangan. Bunday mahoratli ishlangan asarlar qatoriga rus rassomlari V.Serov, K.YUon, V. Kustodievlarning ijod namunalarini qo'shishimiz mumkin. Shuni ham qiziqarli, ayrim rassomlar akvarel bo'yog'ida yaratgan asarlarida guashning faqat oqini ishlatganlar va bu yaxshi samara berganligi ko'rinib turadi. Bunday asarlarga S.Gerasimov ijodiga mansub ishlarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Guash, bo'yog'ining keyingi paytda yangi kashf etilgan turi ham mavjud bo'lib, uning nomi «fluorescentli guash» deb ataladi. Uning ijobiy tomoni sun'iy nur tushirilganda yorqinlik kasb etib, «yal-yal» yonib ko'rinishidir. Chunki uning ximiyaviy asoslari ultrabinafsha, binafsha, ko'k, yashil nurlardan g'ayrioddiy yorqin va tabiatdagidan ikki-uch marta kuchli rangda tovlanib ko'rinadi. Shu sababdan bunday bo'yoq turi teatr bezakchiligida keng qo'llanmoqda. Uning ta'sirchan yarqirab ko'rinishi uchun odatda kvarts lampalari nuridan ham foydalanish rasm bo'lmoqda.

O'quv-mashq ishlarni bajarishda, ayniqsa natyurmortlarni ishlashda guash bo'yog'idan foydalanshp juda xam qo'l keladi. Uni moybo'yoq tasvirlar ishlashdan avval o'rganilsa maqsadga muvofiq keladi. Shuningdek turli kompozitsiyalarning eskizlarini, o'quv-mashq namunalarini guash texnikasida bajarish qulaydir. U bilan katta-katta sathlarni yaxlit qilib bo'yash, tez ishlash mumkin.

Moybo'yoq rangtasvir texnikasi

Moybo'yokda tasvirlarni ishlash rassom uchun xam, endi o'rganayotgan talaba uchun ham juda qiziqarli mashg'ulotdir. Ammo bu mashg'ulotning jiddiy qiyinchiliklari ham mavjud bo'lib, u moybo'yoq rangtasvir texnologiyasi bilan ham bog'liq. Chunki moybo'yoq bilan ishlash ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Ularga bo'yoqlarni tanlash, ish uchun sath (mato) ni tortib tayyorlash, uni qoplama (grunt) bilan yopish, moyqalamlarni tanlash, eritgichlarni tanlab olish kabi zarur tadbirlarni kiritish mumkin. Moybo'yoq tasvirlar ishlashni o'rganish natyurmortlarni chizib mashq qilish orqali o'zlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Moybo'yokli natyurmort rangtasvirini ishlash jarayonining ayrim tomonlari

akvarel texnikasiga o'xshash. Chunki bunda xam avval qalamtasvir chizib olinadi. Agar suvbo'yoqda ishlash uchun tasvir mukammalroq, mayda detallari bilan batafsil chizib olinsa, moybo'yoqda ishlash uchun esa chizmatasvir umumlashtirilib eng asosiy narsalar aks ettiriladi. Buning sababi, moybo'yoqda ishlash jarayonida batafsillik mo'yqalamda ham bajarilishi mumkinligidandir. Moybo'yoqda biror rangni ochlashtirish uchun unga oq rang kerakli darajada qo'shiladi. Shuni ham borki, oq rang qo'shilgach, bo'yoqning yorqinligi ma'lum darajada kamayadi. Buni o'quv mashqlarini bajarish jarayonida albatta hisobga olish lozim. Akvarel texnikasi kabi jihatlardan biri ish jarayonini asosiy uzoq muddatli vazifani boshlashdan avval ranglavha, chizmalavhalar ishlab olinishidir. Shunda bo'lajak rangtasvirning asosiy xususiyatlarini tajriba qilib ko'rib o'rganish, asosiy ishda uni qo'llash mumkin bo'ladi.

Moybo'yoq tasvirlarini ishlash uchun maxsus ashyolardan foydalaniladi. Ular romga tortib tayyorlab, qoplama surtib olingan (gruntlangan) mato, moybo'yoqlarning kerakli xillari, bo'yoqtaxta (politra), mo'yqalamlarning turlicha kattalikdagi xillari, «mastixin» va eritgichlardan iboratdir.

Romga tortilgan mato qanday tayyorlanganligi tasvir sifatini belgilaydigan omillardan biridir, desak xato bo'lmaydi. Uning qoplama (grunti) ikki xil tarzda tayyorlanishi mumkin. Biri moyli qoplama bo'lib, u quyidagichadir: 5 foizli elim (jelatin, baliq yoki duradgorlik elimi) aralashmasi shunga teng hajmdagi bo'rga qo'shiladi. U bilan mato sathi qoplanadi. Bir marta surtilgandan so'ng qoplama bo'yoq qatlami tayyorlab olinadi. U quyidagi tarkibda, ya'ni - maxsus oqartirilgan (oftobda toblangan) rangtasvir yog'i, quruq oq bo'yoq kukunidan qo'shib tayyorlangan aralashma bo'ladi. Yog' va kukunning nisbati shunday bo'lishi kerakki u tayyor, maxsus idishga solib chiqariladigan moybo'yoqlardan suyuq bo'lmasin. Shunda uni bemalol mato sathiga «mastixin» bilan tekis qilib surtib chiqish mumkin bo'ladi. 1-2 hafta quritilgach g'adir-budir erlari qumqog'oz bilan yaxshilab tekislanadi va skipidar aralashirilgan moyli qoplama yassi, katta mo'yqalam («fleys») bilan tekis qilib bo'yab chiqiladi. Bunday usulda tayerlanadigan mato 2-3 oy mobaynida quritiladi. U saqlanadigan joy iliq va quruq bo'lishi shart.

«Elimli qoplama» deb yuritiladigan qoplamaning ikkinchi xili quyidagicha tayyorlanadi: 1 l. suvda 50-60 gr. jelatin eritiladi va unta 15 gr. glitserin qo'shiladi. U matoga 1-2 marta surtiladi. Birinchi marta surtilgani qurigach qumqog'oz bilan mato usti tekislanib olinadi, so'ng ikkinchisi surtiladi. Shundan so'ng elim aralashmasi bo'r va oq bo'yoq kukuni bilan teng nisbatlarda 40 S darajali issiqda eritiladi. Agar uning tarkibi quyuq bo'lib qolgudek bo'lsa, o'sha elim aralashmasidan qo'shiladi. Bunday qoplama 2-3 marta qavatma-qavat qilib surtiladi. Ular oralig'ida qurishi uchun ma'lum vaqt bo'lishi shart.

Qoplamalar yana ma'lum rang tusida ham tayyorlanishi mumkin. Ular ko'proq ijodiy ishlarni bajarishda va kompozitsiya yaratish jarayonlarida qo'l keladi. Moybo'yoqda o'quv-mashqlarni bajarishda rang xillaridan ham unumli foydalanish talab etiladi. Vazifalarni ishlaganda juda ko'p rang xillaridan bilib-bilmay ishlatish yaxshi samara bermaydi.

Tabiatda ettita asosiy rang (bo'yoq) borligi ma'lum. Ular qizil, noranji, sariq, yashil, havo rang, ko'k, binafsha ranglardir. Bo'yoq aralashtiriladigan taxtada (politrada) bo'lishi juda zarur rang xillari esa qizil, sariq, ko'k bo'yoqdir. CHunki ularni boshqa qolgan asosiy rang-tuslar vositasida hosil qilib bo'lmaydi. Bularning aralashmasidan juda ko'p, deyarli barcha ranglarni chiqarish, hosil qilish mumkin. Ulardan hatto qora rang tusini ham topish mumkinligi sir emas. Faqat qaysi rangni bir-biriga qancha miqdorda aralashtirishni bilish kifoya. Buning uchun esa albatta tajriba va uquv bo'lishi kerak.

SHuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, tabiatda absolyut oq va absolyut qora ranglar mavjud emas. Ularning barchasi qandaydir bir rang tovlanishida bo'ladi. Masalan, qoraning jigarrangta, ko'kka, yashilga moyil ekanligini ko'rishimiz mumkin. Oq rangning turli nozik tuslarga moyilligi ham tabiiy. Bunday rang va tuslarning hamda ularning to'q-ochliklarini topib tasvirlash uchun moybo'yokda ishlash texnikasi juda qulaydir. SHu imkoniyatlarning kengligi bilan u boshqa bo'yoq turlaridan ajralib turadi.

Moybo'yoq texnikasida rangtasvirlar bajarganda mo'yqalamlarning qanday turlari va o'lchamlardagilarini ishlatish ham muhimdir. Ularni tanlay bilish ko'p foyda keltiradi. Ma'lumki natyurmortlarni, katta ishlarni bajarishda yapaloq va dag'al mo'yqalamlarni qo'llash ish sifatini, ta'sirchanligini ta'minlaydi. Moybo'yoqlarga suyultiruvchi, erituvchi vositalar qo'shib ishlatiladi. Ular moyli va moyi kamaytirilgan bo'lishi mumkin. Moylirog'i bo'yoqni sekin qurishi uchun yaxshi vosita bo'lib, u bilan foydalanilgan paytda rangtasvir sekin quriydi. SHu sababli uzoq muddatda bajariladigan tasvirlarni ishlashda qulaylik yaratadi. Bunday eritgichlarga ba'zan lak ham aralashtirib ishlatilishi mumkin, shunday qilinganda ishning bo'yoq qatlami tezroq quriydi va bo'yoqning moyi matoga shimilib ketishining oldi olinadi.

SHuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, moybo'yoq texnikasida rang qoriladigan maxsus taxtacha (politra) ning yuzasida bo'yoqlarni qanday joylashtirish masalasi ham muhim. Unda bo'yoqlar issiq-sovuq ranglarga ajratib, shu bilan birga to'q-ochligiga qarab ajratib joylashtirilishi mumkin. Oq bo'yoq odatda o'rtada yoki ranglar qatorining boshlanishida bo'ladi. Agar har safar bir xil joylashtirilsa, rassom shunga o'rganadi va kerakli bo'yoqni darrov topib ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Moybo'yoqda tasvirlar ishlashning juda ko'p o'rganilishi kerak bo'lgan

tomonlari bor. Ularning barchasi ko‘p mashq qilish orqali o‘rganib olish imkonini beradi. Tajriba nazariy va amaliy tomondan muntazam mashq qilish natijasida oshadi. Bunda maxsus adabiyotlarni mutolaa qilish ham yaxshi yordam beruvchi vositadir.



B. Tojiev. “Baxor lolalari”



R. Axmedov. "Nigora portreti" 1976 y.



N. Abdusalomxo'jaev. "Xovli"



N. Abdusalomxo'jaev. "Xumson qishlog'i"



B.Tojiev. "Atirgullar" natyurmort

V. KEYSLAR BANKI

Keys.

Dizaynerlarni dizayn nazariyasi asoslari, perespektiva, yorug'lar, yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi haqida tanishtirib borish;

Milliy natyurmortni tasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasini qo'llanilishini tushuntirish;

3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun Dizaynerlarga amaliy mashg'ulotlar asosida zaruriy bilimlarni berish.

Кейсни бажариш босқичлари ва топшириқлар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгилаш (индивидуал ва кичик гуруҳда).
- Dizaynerlarga амалий машғулотлар асосида зарурий билимларни бериш.

Dizayn turlari va sohalarini rivojlantirish metodikasi dasturi:

1. Tinglovchiga tasvirlanayotgan buyumlarning tekislik va kengliklariga tushayotgan yorug'liklar va ulardagi tushlarning xususiyatlarini bir-biriga aloqadorligini hisobga olishni tushuntirish;

2. Dizaynerlarni chizmatasvir nazariyasi asoslari, perespektiva, yorug'lar, yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi haqida tanishtirib borish;

3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun Dizaynerlarga amaliy mashg'ulotlar asosida zaruriy bilimlarni berish.

Mashg'ulot paytida:

Tinglovchi va talabalarining asosiy va yuqori amaliy bilimlardan qoniqish hosil qilishlari uchun o'quv ustaxonasi kerakli yorug'lik va chizmatasvirida qo'llaniladigan zarur jihozlar bilan ta'minlanishi kerak.

Ishlatiladigan ashyolar;

har xil yumshoqlikdagi oddiy grafitli qalamlar, ko'mir, sous, sagina. planshet, qog'oz, o'chirgich.

chizmatasvir ishlash uchun dastgoh (molbert).

TOIFALASH JADVALI VA KONSEPTUAL JADVALINI - guruhlarga qo‘llash, o‘rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashni ta‘minlaydi. Tizimli fikrlash, ma‘lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

VI. MUSTAQIL TA‘LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta‘lim tegishli o‘quv moduli bo‘yicha ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tashkil etiladi va uning natijasida tinglovchilar bitiruv ishi dirasida referat yoki kurs ishini tayyorlaydi.

Mustaqil ish talablari har bir tinglovchi o‘zi tanlagan rassom ijodi yoki badiiy asar taqdimotini tayyorlaydi.

Mustaqil ish taqdimoti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi:

- Sarvaraq;
- annotatsiya;
- mundarija;
- asosiy qism: nazariy tahlil;
- illyustratsiyalar ilovasi;
- xulosa;
- glossariy;
- adabiyotlar ro‘yxati.

Keyslar banki;

Boshqa materiallar (fanni o‘zlashtirishga yordam beruvchi qo‘shimcha materiallar: elektron ta‘lim resurslari, ma‘ruza matni, glossariy, test, krossvord va boshq.)

Shuningdek, mustaqil ta‘lim jarayonida tinglovchi kasbiy faoliyati natijalarini va talabalar uchun yaratilgan o‘quv-metodik resurslarini “Elektron potrfolio” tizimiga kiritib borishi lozim.

Mustaqil ish mavzulari

Kompyuter grafikasi haqida ma‘lumot.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasi va uning asosiy vazifalari.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasining qo‘llash imkoniyatlari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasi kursiga qo‘yiladigan asosiy talablar.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasining texnik vositalari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Kompyuter grafikasida qo'llaniladigan grafik dasturlar haqida ma'lumot.
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Windows amaliyot tizimidagi grafik muharrir.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Corel Draw grafik dasturi paketi. Uning grafik va servis imkoniyatlari.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Adobe Photoshop grafik dasturi paketi. Uning grafik va servis imkoniyatlari.
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Auto CAD grafik muharriri.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Grafik muharrirlarda chizma, rasmlarni tahrirlash va printer qurilmasi yordamida chop qilishni o'rganish.
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Kompyuter grafikasining turlari.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Kompyuter grafikasi qanday fan ?
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Kompyuter grafikasidan foydalanish.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Grafik chiqarish qurilmalari.
Badiiy vositalar tekst modellari va palitrage qo'shimcha effektlar, tasvirlarni yaratish va chiqarish haqida ma'lumot.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Kompyuter grafikasining qanday turlari mavjud?
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Tasvirlar animatsiyasi haqida ma'lumot.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Taqdimotlar va uni yaratish usullari.
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Kompyuter grafikasining rivojlanish bosqichlari.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Kompyuter grafikasining fanlar bilan aloqasi.
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Kompyuter grafikasining hayotga tatbig'i.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Dizayn san'atida zamonaviy reklamaning o'rni.

Dizayn texnologiyasi, asbob-uskunalar, materiallar va ulardan foydalanish.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.
Badiiy loyihalashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.
Reklama plakati eskizini tayyorlash.
Belgi va ramziy belgilarning kelib chiqish tarixi, ularning turlari.
Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

VII. GLOSSARIY

Antropometriya (yunoncha so'z «antropos» - odam, «metron» - o'lchov ma'nosini bildiradi) – antropologiyaning bir bo'limi hisoblanib, odam tanasining tuzilishi, asosiy harakat va holatini, tavsif o'lchamlarini o'rganadi. Antropometriya turli jinsdagi, yoshdagi, etnik jihatdan mansubligi va geografik regioniga qarab odamlar uchun o'rta katta-kichik meyorlarini o'rnatadi. Antropometriya asoslari, mahsulot va binolarni proektsiyalashda, ularning odamlarga loyiq ta'minlash maqsadida va ohir-oqibat qulay ishlatilishida va qulaylik yaratishda keng foydalaniladi.

Badiiy konstruktsiya – loyihalash faoliyatining alohida tarzdagi xilma-xil obektlari bo'lmish sanoat va maishiy yo'nalishdagi mahsulotlar, yirik seriyalarda sanoatlashgan uslubda ishlab chiqarilishi. Badiiy konstruktsiya ob'ektlarining xarakterli xususiyati-ularning ishlanmasida injener-konstruktor va texnologlarning qatnashishlari zarurligi. Rassom-konstruktor mahsulot ishlanmasi ustida, texnikaviy estetikaning, nazariy va metodologik bilimlariga tayangan holda ish olib boradi.

Badiiy loyihalash – uni tarkibiy qismiga kiruvchi badiiy konstruktsiyaga nisbatan, mahsulotlarni ishlab-chiqarish jarayonida kengroq doirasidir. Uning ob'ekti, hozirgi paytgacha yig'ilgan metodlar bo'yicha ishlab chiqariladigan barcha mahsulotlar kiradi.

Badiiy sifat – mahsulotning inter'er vash u kabilar tashqi ko'rinishida, afzalliklari, shakl va elementlar o'lchamlarining o'zaro uyg'unligi, mutanosibligini, ritmik tuzilishi, fakturasini, rang va boshqa kompozitsion xarakteristikalarini aniqlaydi. Badiiy sifat asosiy ko'rsatkichlaridan biri, odam uchun xizmat qiladigan predmet muhitining organik elementi sifatida, barcha xarakteristik shakllarni, mahsulotning asosiy g'oya echimiga bo'ysundirishdir.

Badiiy uslub (stil) – badiiy ijod doirasiga mansub bo'lib, mavjud bo'lgan qator umumiy tomonlarga ega me'morchilikda, san'at asarlarida, dizaynda tarixiy bosqichning u yoki bu davrlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Badiiy uslub ko'pincha buyumlarning me'morchilik va badiiy asarlarida kompozitsion qurilishida namoyish etiladi.

Dekor (lotincha «dekor» soʻzidan – bezayman, maʼnosini bildiradi) – bezak elementlari va mahsulot bezagini toʻplami. Dekorning asosiy koʻrinishlari: ornamentika, tasviriy va arxitektura motivlari, bezakli qoplami. Rivojlangan dekor, dekorativ – amaliy sanʼat mahsuloti uchun xarakterlidir, ayniqsa oʻtmishda, uning shakliga atayin bezatish uchun kiritilgan element (detal)lar koʻrinishida tez-tez chiqib turgan. Dekor xarakteri, bironta ustani buyumlarning goʻzallik mohiyatini, davr tasavvurlari orqali aniqlanadi.

Dekorativlik – shakl taʼsirchanligi shartlaridan biri, mahsulot hususiyati, uning shakl va siluet konfiguratsiya hosiyatlari, hamda materialning rangi, faktura va teksturasi bilan bogʻliqdir. Koʻpincha dekarativlikni dekor elementlarining qoʻllanilishi, masalan ornamentika bilan bogʻlashadi. Lekin bu vaziyatda dekorativlik emas, balki mahsulot dekarativligi deyilsa, toʻgʻri aytilgan boʻladi. Aslida dekorativlik barcha dekorlardan mahrum boʻlgan koʻpgina predmetlarda, masalan: radiopryomnik, avtomobillar, metallning ustki qoplami, kristallar, oʻsimliklar bargi va boshqa narsalarda mavjuddir.

Mahsulotning dekorativligi, shaklning tartibga solinishi va mantiqiy konstruktivligi, ritmi, rangi, mutanosibli, faktura vash u kabilarning tashkil etilishiga bogʻliqdir.

Disgarmoniya (yunoncha «harmonia» soʻzidan – garmoniya, uygʻunlik, «dis» - old qoʻshimcha boʻlib, inkor etish maʼnosini anglatadi) – muvofiqlashmaganlik, shaklg barcha va alohida boʻlgan xususiyatlari orasidagi qarama-qarshilik, masalan: mahsulotning ritmik tuzilmasi bilan uning rang echimi orasidagi ziddiyat. Shaklda disgarmoniyaning paydo boʻlishi, uning badiiy sifatini pasayishiga olib boradi.

Interʼer (fransuzcha «inteieur» soʻzidan – ichki maʼnosini bildiradi) – binoning ichki muhitining, funksional – estetik munosabatda, nisbatan yopilgan va tashkil etilganligidir. Interʼer xona toʻsiq sirtlari (devor, ship, pol) va uning barcha jihozlash va bezatish vositalari toʻplamidan tashkil topadi.

Kompaktlik (lotincha «compactus» soʻzidan – zich, gʻuj, yigʻilganlik maʼnosini bildiradi) – shakl elementlarining joylashuvida maksimal zichligi. Kompaktlik darajasidan, mahsulotning quyilganligi aniqlanadi.

Kompleks loyihalash – qator mahsulotlarning loyihalalanishi, odamning ish faoliyatini muayyan jarayonidagi talablarni toʻliq taʼminlash; masalan, oshxona uchun jihozlar, maktab uchun mebel va hk. Kompleks loyihalashning maqsadi, odamlar uchun iloji boricha dam olishda, uyda, ishxonalarda qulaylikni, uygʻunlikni va badiiy muhitni yaratishdir.

Kompozitsiya (lotincha «compositio» soʻzidan – oʻylab chiqaraman, tuzaman, yarataman maʼnosini anglatadi) – mahsulotning muayyan maqsadga hizmat qiladigan tartibda joylashuvi va ularning muvofiqligi.

Komponovka (lotinyaa «compono» soʻzidan – tuzaman maʼnosini anglatadi) – turli elementlarning oʻzaro mos qilib joylashtirishning qidiriv jarayoni.

Komfort («copfort» - inglizcha soʻz boʻlib) odamning maʼlum bir narsa yoki baʼzi buyumlar toʻplamidan oladigan barcha qulayliklar yigʻindisidir. Mahsulotlar qulaylikning talabiga toʻliq javob bersa, ular huzur-halovatli hisoblanadi. Bunday qulayliklarning yoʻqligi esa, maʼlum ish jarayoni muhitida diskomfortni yuzaga keltiradi.

Konstruksiya («constructio» lotincha soʻz boʻlib – quraman maʼnosini anglatadi) mahsulot elementlarining oʻzaro bogʻliqligi, aloqadorligi. Konstruksiyaning hosiyati, asosan mahsulot elementlarining oʻzaro bogʻlanishida va oʻzaro joylashuvida aniqlanadi.

Konstruksiya tipologiyasi – mahsulot elementlarining oʻzaro bogʻliqligini, konstruktiv klassifikatsiya tiplaridagi farqlari.

Konstruksiya klassifikatsiyasining asoslariga:

- 1) elementlarning bogʻlanish tipii (ajralmas, ajraladigan; yigʻiladigan va boʻlinadigan);
- 2) elementlarning oʻzaro munosabat tipii (turgʻun; kinetik);
- 3) ularning ulanish sxemasi va usuli; (yahlit; karkasli;, jildli;, toʻplamli);
- 4) maʼlum mahsulotning boshqa buyumlar bilan bogʻlanish konstruksiya tipii (avtomnom; bloklanadigan);
- 5) funksional holatning tipii (statsionar; safarbar; ihcham);
- 6) konstruksiyaning asosiy va asosiy boʻlmagan elementlarini oʻzaro munosabat tipii (ochiq; yopiq; yarim ochiq) va h.k..

Tashqi koʻrinish – bunda, buyumning shakli idrok etish orqali tomosha qilinadi. Shakl elementlari buyumni ishlatish jarayonida idrok etish ham buyumning tashqi koʻrinishiga kiradi. Mahsulotning idrok etilishida, unga estetik baho berilishi, tashqi koʻrinish uchun yagona manbaadir.

Texnik estetika – ilmiy soha boʻlib, predmet muhitini shakllanishi va rivojlanishi, odamlarning ish faoliyati jarayonida predmetli sharoit qonuniyatlarini oʻrganadi. Texnik estetikani oʻrganish spetsifik predmeti – bu odamlarning biologik va ijtimoiy mavjudod sifatida predmetli muhit bilan oʻzaro munosabatidir.

Foydali effekt – mahsulotlarning toʻgʻridan-toʻgʻri oʻz oʻrnida ishlatishning natijasidir. Mahsulotning ishlatishda foydali effektning katta-kichikligi, bir qator talablarga amal qiladi: mahsulotning texnik mukammallik darajasi; antropometrik oʻlchovlarga munosibligi; ekspluatatsiya muhitida, uning konstruksiya va shaklning oʻzaro mosligi va hk.. Shunday qilib, foydali effekt mahsulot sifatini belgilashida asosiy koʻrsatkichlaridan biridir.

Foydalanish qulayligi – mahsulotni oʻzining joyida oddiy, havfsiz va shu kabi ishlatilishi tushuniladi. Foydalanish qulayligi, mahsulotni transportirovka

qilish, saqlash, yig'ishtirish, ta'mirlash emas, uni faqatgina ishlatish, foydalanish jarayonida qo'llaniladi. Foydalanish qulayligi, mahsulotni qurilishi va shakl orqali ta'minlanishi, ularning antropometriya, ergonomika talablariga hamda ekspluatatsiyaning konkret sharoitda mutanosibligidir.

Shakl – mahsulotning muhitga mos qurilmasi, ya'ni nuqta, chiziq, qirra, sirt, burchak, shakl, hajm va boshqalarning aniq o'lchamga ega bo'lishidir.

Sanoat mahsulotlarida shaklning umumiy talablaridan biri barcha elementlarning kompozitsion qonuniyatlar asosida muvofiqligi.

Shaklning ifodaviyligi – mahsulotning badiiy ko'rsatkichlaridan biri, bunda buyumning tashqi ko'rinishi va tuzilishini o'zaro munosibligi, maqsadga muvofiqligi aniqlanadi. Bundan tashqari, odamning emotsional kayfiyatiga ta'sir etishi ham muhim ahamiyatga egadir. Mahsulotning bunday ta'sir etish hususiyatlaridan biri – uning dekorativ echimini estetik fahimlanishidir.

Ergonomika - (yunoncha so'z bo'lib, «ergon» - ish, «nomos» - qonun degani) ilmiy-nazariy va ilmiy-eksperimental soha bo'lib, odamning o'zgarib turadigan muhitda, ma'lum ta'sirlanishini talab etuvchi har-xil jihozlar va ish faoliyati muhitida vositalarning odamga ta'sir qiladigan psixofiziologik faktorlarini o'rganadi. Ergonomikaning nazarga oladigan va o'rganuvchi asosiy faktorlariga har xil qo'zg'atuvchilarga odamning munosabati (reaksiyasi), ya'ni optik, tovushli, haroratli va hk.. kiradi. Shu munosabat bilan, ergonomika odamning fiziologiya, psixofiziologiya bilimlariga tayanadi va loyhalanayotgan ob'ektlar shakliga birqancha talablarni aniqlab beradi.

Estetik qimmat – ma'lum mahsulot yoki predmetli muhitining odamlar estetik qarashlariga muvofiqligi. Estetik baholanayotgan ob'ektni, uning barcha hususiyatlarini umumiyliigi va ular orasidagi har xil bog'lanishlarning paydo bo'lishi, birinchi tomondan odam, hamda ikkinchi tomondan ijtimoiy muhitini xarakterlaydi.

Umuman olganda, badiiy sifat odatda, mahsulotning estetik ahamiyati shartlaridan biri bo'lib hizmat qiladi.

VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mipziyoyev SH.M. Byyuk kelajagimizni mapd va olijanob xalqimiz bilan bipga qypamiz. – T.: O'zbekictan, 2017. – 488 b.
2. Mipziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qatiy taptib-intizom va shaxciy javobgaplik – hap bip pahbap faoliyatining kyndalik qoidaci bo'lishi kepak. – T.: O'zbekictan, 2017. – 104 b.
3. Mipziyoyev SH.M. Epkin va fapovon, demokpatik O'zbekictan davlatini bipgalikda bappo etamiz. – T.: O'zbekictan, 2016. – 56 b.
4. “Ta'lim to'g'picida”gi O'zbekictan Pecpyblikacining qonyni. Qonyn hyjatlapi ma'lymotlapi milliy bazaci, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-con.
5. O'zbekictan Pecpyblikaci Ppezidentining 2017 yil 16 avgyctdagi “O'zbekictan Badiiy akademiyci faoliyatini yanada takomillashtipish va pivojlantipish chopa-tadbiplapi to'g'picida”gi PQ-3219-con qapopi. – T.: O'zbekictan Pecpyblikaci qonyn hyjatlapi to'plami, 2017 yil 28 avgyct, 34-con, 876-modda.
6. O'zbekictan Pecpyblikaci Ppezidentining 2018 yil 25 yanvabdagi “Umymiy o'pta, o'pta maxcyc va kacb-hynap ta'limi tizimini tybdan takomillashtipish chopa-tadbiplapi to'g'picida”gi PF-5313-con Fapmoni. – T.: O'zbekictan Pecpyblikaci qonyn hyjatlapi ma'lymotlapi milliy bazaci, 25.01.2018 y., 06/18/5313/0618-con.
7. O'zbekictan Pecpyblikaci Ppezidentining 2020 yil 21 appeldagi «Tacvipiy va amaliy can'at cohaci camapadoplugini yanada oshipishga doip chopa-tadbiplapi to'g'picida»gi PQ-4688-con qapopi. – T.: Qonyn hyjatlapi ma'lymotlapi milliy bazaci, 22.04.2020 y., 07/20/4688/0475-con.
8. «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-komunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002 y., 4-5-son, 98-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujatlari to'plami, 2006 y., 28-29-son, 262-modda).
9. Azizxo`jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti, 2006.
10. Abdyqodipov A.A, Papdayev A.X. Ta'lim japayonini texnologiyalashtipish nazariyaci va metodologiyaci. – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 104 b.
11. Abdylloyev N.A. Can'at tapixi. I tom. –T.: O'qityvchi, 1987. – 352 b.
12. Abdylloyev N.A. Can'at tapixi. II tom. – T.: Can'at, 2001. – 192 b.
13. Akilova K.B. Napodnoye dekopativno-ppikladnoye ickycctvo Uzbekictana XX veka [ppoblemi pazvitiya]: Avtopefepat dicceptatsii doktopa ickycctvovedeniY. NII ickycctvoznaniY. – T.: 2002. – 57 b.
14. Amipgazin K.J., Udalov C.P. Fopmipovaniye kompetentnoctey v ppotsece obycheniya dekopativno-ppikladnomy ickycctvy // Omckiy naychniy vectnik.

2012. №2 (106). – C.223-225.
15. Baymetov B., Alimova G. Maxsus rasm, o'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011.
16. Bulatov S.S., Gulyamov K.M. Amaliy san'at. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2014. – 542 b.
17. Gulyamov K.M., Mirsanov U.M., Ikromov M.H. Vektor grafikasi asoslari. – Toshkent, O'zR FA "Fan" nashriyoti, 2021. – 160 b.
18. Gulyamov K.M., Mirsanov U.M., Djurayev D.D. Rastr grafikasi asoslari. – Toshkent, O'zR FA "Xalq nashriyoti", 2022. – 160 b.
19. Gulyamov K.M. Improving System of Future Applied Art Teachers Training based on Competence Approach // Eastern European Scientific Journal jypnali. – Gepmaniya, 2018. – № 6. – P. 83-88.
20. Gulyamov K.M. Modern educational technologies for the formation of professional competence of future applied art teachers // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – India, Vol. 10, July 2020. – P. 678-685.
21. Qodirxo'jayev P. Badiiy bezak san'ati. –T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.
22. Yo'ldoshev H., Bulatov S. Ustoz va shogird odobi. – T.: Ozbekiston, 2005. – 240 b.
23. Bylatov C.C. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – T.: Mehnat, 1991. – 384 b.
24. Bylatov C.C., Gylyamov K.M. Amaliy san'at Elektpon daplik. №DGU04551 raqamli gyvohnoma. 21.04.2017.
25. Bositxonov Z. Xandasiy naqsh (girix)larning yechimlari. – T.: Ochiq jamiyati Instituti Ko'mak Jamg'armasining O'zbek Vakolatnomasi, 2002. – 88 b.
26. G'oziyev V., Jabbopov U. Faoliyat va xylq atvop mativatsiyaci. – T.: 2003.
27. G'oziyev E. Psixologiya: (Yosh davplapi psixologiyaci): Ped.inctitytlapi va ynivepcitetlapi ychyn o'qyv qo'llanma. – T.: O'qityvchi, 1994. – 224 b.
28. Gylyamov K.M. Dekopativno-ppikladnoye ickycctva Uzbekictana: glybokiye tpaditsii i pazvitiye yzbekckoy shkoli // Naychniy fopym: Filologiya, ickycctvovedeniye i kyltypologiya: sb. ct. po matepialam XIX mejdynap. naych.-ppakt. konf. – № 8(19). – M.: Izd. «MSNO», 2018. –C. 29-34.
29. Gylyamov K.M. Kacb-hynap kollejlapi xalq amaliy san'atini o'qitish metodikaci (naqqoshlik san'ati micolida). Pedagogika fanlapi nomzodi dicceptatsiyaci. – T.: TDPU. 2012. – 140 b.
30. Gylyamov K.M. Komponenti pprofessionalnoy kompetentnosti bydyshego ychitelya ppikladnogo ickycctva // International scientific journal «Global science and innovations 2020: Central asia» Nur-sultan, Kazakhstan, feb-march 2020, – C.113-117.
31. Gylyamov K.M. Kompetensiyaviy yondashyv acocida bo'lajak amaliy san'at

- o'qityvchilapini kacbiiy faoliyatga tayyoplash tizimini takomillashtipish. MonogpafiY. – T.: TO'YTEPA PRINT, 2020. – 156 b.
32. Gylyamov K.M. Kompetensiyaviy yondashyv acocida bo'lajak amaliy can'at o'qityvchilapini kacbiiy faoliyatga tayyoplash tizimini takomillashtipish // Innovations and modern pedagogical technologies in the education system: materials of the X international scientific conference on February 20–21, 2020. – Prague: Vědecko vydavatelské centrum «Sociosféra-CZ», 2020. – P.54-57.
33. Gylyamov K.M. Pedagogicheckiye ocnovi vnedpeniya innovatsionnix texnologiy v ppepodavaniye napodnogo dekopativno-ppikladnogo ickycctva Uzbekictana // I International scientific specialized conference «International scientific review of the problems of pedagogy and psychology». – Boston. USA, 2018. – C. 20-23.
34. Gylyamov K.M., Tyxtamatov X.P. Amaliy can'at. Elektpon o'qyv qo'llanma. №DGU 03070. 26.02.2015.
35. Gulyamov K.M. Primneniye sovremennix trebovaniy v prepodavanii rospisi v professionalnom kolledje // Molodoy uchyoniy. – Chita, 2011. – № 6 (29), Tom II, – B. 144–145.
36. Djypayev P.H. Ta'limda intepfaol texnologiyalap. – T.:2010. – 87b.
37. Ishmyxammedov P., Abdyqodipov A., Papdayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalap (ta'lim myaccacalapi pedagog-o'qityvchilapi ychyn amaliy tavciyalap). – T.: Icte'dod, 2008. – 180 b
38. Karpova S.V. Reklamnoye delo. – M.: Finansi i statistika, 2006.
39. Karxu A.A. Shrift Obyom-prostranstvo. – M.: Panorama. 1990. – 32s.
40. Kurushin V.D. Dizayn i reklama. – M.: DMK Press, 2006.
41. Qocimov Q. Naqqoshlik. – T.: O'qityvchi, 1990. – 160 b.
42. Lusiy S.A. Izuchayem Photoshop. – SPb.: Piter, 2004. – 441 s.
43. Mironov D.F. Corel DRAW 12. – SPb.: Piter, 2004. – 442 s.
44. Nabiyev M. Rangshunoslik.-Toshkent, O'qituvchi, 1996.
45. Nozilov D.A. O'rta Osiyo dizayni tarixidan. -T.: O'zbekiston, 1998.
46. Petrov M.N., Molchanov V.P. Kompyuternaya grafika. – SPb.: Piter, 2003.
47. Rahmonov I., Ashirboyev A. Geometrik chizmachilik shriftlar. – T.: «Noshir» nashriyoti, 2009.
48. Rixsiboyev T. «Kompyuter grafikasi», – T.: “O'zbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg'armasi” nashriyoti, 2006.
49. Cayidaxmedov N.C., Indiaminov N.N. Pedagogik mahopat va pedagogik texnologiy. Fan va texnologiya, – T.: 2014. – 336 b.
50. Sotiboldiyev Z.SH. Dizayn asoslari. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010.
51. O'zbek tilining izohli lyg'ati. – T.: O'zbekicton milliy ensiklopediyaci. Davlat ilmiy nashpiyoti, 2006. – 690 b.

52. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – T.: 2008. T.8. – 704 b.
53. Faxpetdinova D.A. Dekopativno-ppikladnoye ickycctvo Uzbekictana. – T.: Izdatelectva litepatypi i ickycctova im.Gafypa Gylyama, 1972. – 64c.
54. Xvopoctov A.C. Cictema ppoфессиональной подготовки студентов xydojectvenno-gpafичeckix fakyltetov k ppoyektnoy deyatelnocti na baze kompyutepnix texnologiy: dlya nappavleniya podgotovki “Ickycctvo intepyepa” i “Dizayn cpedi”. Dicceptatsiya na coickaniye ychenoy ctepeni doktopa pedagogичeckix nayk. – M.: 2013. – 483 c.
55. Xolmyanskiy L.M., Shchipanov A.S. Dizayn. – M.: Prosvesheniye, 1985. O‘zbekcha tarjima. O‘qituvchi, 1991.
56. Xoshimov O.O., Tulyaganov M.M. Kompyuterli va raqamli texnologiyalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – 104 b.
57. Hacanov P. Amaliy bezak can’ati mashg‘yotlari metodikasi. – T.: O‘zPFITI, 2003. – 72 b.
58. Hakimov A.A. Covpemennoye dekopativnoye ickycctvo pecpyblik Cpedney Azii. – T.: Fan, 1992. – 190 b. il.
59. Yuldashev U.Y. Informatika. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 104 b.

Internet saytlar:

60. www.artacademu.spd.ru
61. www.edu.uz.
62. www.lex.uz – O‘zbekiston Pecpyblikaci Qonyn hyjjatlari ma’lymotlari milliy bazasi.
63. www.pedagog.uz.

www.Ziyonet.uz.